



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

TA'LIMDA PSIXOLOGIK XIZMAT MUAMMOLARI

**MODULI BO'YICHA
O'QUV – USLUBIY
MAJMUA**

2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

“Ta’limda psixologik xizmat muammolari”

moduli bo‘yicha

Q‘q u y – u s l u b i y m a j m u a

Toshkent – 2025

Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Psixologiya kafedrasini mudiri p.f.d., professor, D.G.Muxamedova

Taqrizchilar: ps.f.d., prof. A.I.Rasulov–O‘zbekiston Milliy universiteti,
ps.f.n., v.b. prof. To‘ychiyeva –TAFU, “Psixologiya” kafedrasini mudiri

*O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024- yil “29” noyabrda 4-sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	16
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	53
V. KO'CHMA MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	59
VI.ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	65

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy

asoslari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, ta'limda psixologik xizmat muammolarini o'rganish, tatbiqiy ijtimoiy psixologiyadan samarali foydalanish bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Pisixologiya**” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

-o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“**Pisixologiya**” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- ta'lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlarini;
- amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalarini;
- zamonaviy psixologiya fanlari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablarni;
- siyosiy psixologiyani;
- iqtisodiy psixologiyani;
- reklama psixologiyasini;
- individual va guruxiy psixokorreksiyaning;
- psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalarini;

- psixokorreksion metodlarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- psixologik xizmatni tashkil etish;
- ijtimoiy psixologiyaning tatbiqiy sohalarini ahamiyatini yoritib berish;
- ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining meyoriy hujjatlaridan foydalanish;
- psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlarini tahlil etish;
- tatbiqiy ijtimoiy psixologiya tarixini o'zlashtirish;
- tatbiqiy ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va asosiy yo'nalishlarini amaliyotga tadbiiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- korreksion tadbirlar olib boradigan psixologga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirish;
- ijtimoiy vaziyatlar psixologiyasining asoslarini o'zlashtirish;
- guruxiy psixologik maslahatni o'rganish;
- psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalarini rivojlantirish;
- psixokorreksion dastur tuzishda qo'yiladigan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- ekstremal vaziyatlarda tatbiqiy ijtimoiy psixologiyadan foydalanish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- tatbiqiy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning xususiyatlaridan foydalanish;
- amaliy tadqiqotning xususiyatlarini qo'llash;
- psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish;
- ta'limda tatbiqiy ijtimoiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari yoritib berish;
- tatbiqiy ijtimoiy psixologiyani, tabiiy va ijtimoiy fan sifatida qo'llash;
- pedagog faoliyatida tatbiqiy ijtimoiy psixologiyaning yetakchi ahamiyatga ega ekanligini asoslash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

- Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Ta’limda psixologik xizmat muammolari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Tatbiqiy ijtimoiy psixologiya” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida psixologik xizmatni tashkil etish, amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari va korreksion tadbirlar olib boradigan psixologga qo‘yiladigan talablardan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Ta’limda psixologik xizmat muammolari moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Psixologik xizmatni tashkil etish. Ta’lim sohasidagi psixolog faoliyatining meyoriy hujjatlari.	10	2	2	6
2.	Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari. Korreksion tadbirlar olib boradigan psixologga qo‘yiladigan talablar.	4	2	2	
3.	Guruhiy psixologik maslahat. Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari.	10	2	2	6
4.	Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari. Psixokorreksion metodlari. Individual va guruhiiy psixokorreksiya.	4	2	2	
	Jami:28	28	8	8	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Psixologik xizmatni tashkil etish. (2 soat)

Reja:

- 1.1. Psixologik xizmatni tashkil etish.
- 1.2. Ta’lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari.

2-mavzu: Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari. (2 soat)

Reja:

2.1. Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari.

2.2. Psixokorreksion dastur tuzishda qo'yiladigan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu: Guruxiy psixologik maslahat. (2 soat)

Reja:

3.1. Guruxiy psixologik maslahat.

3.2. Zamonaviy psixologiya fanlari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar

4-mavzu Psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlari. (2 soat)

Reja:

4.1. Psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlari.

4.2. Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining meyoriy hujjatlari. (2 soat)

2-amaliy mashg'ulot: Korreksion tadbirlar olib boradigan psixologga qo'yiladigan talablar. (2 soat)

3-amaliy mashg'ulot: Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari. (2 soat)

4-amaliy mashg'ulot: Psixokorreksion metodlari. Individual va guruxiy psixokorreksiya. (2 soat)

KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI

Ko'chma mashg'ulotlar "Psixologik xizmatni tashkil etish" (6 soat) hamda "Guruxiy psixologik maslahat" (6 soat) mavzulari yuzasidan zamonaviy jihozlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llab faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarida olib boriladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

1. “KWLH” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWLH:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?

“KWLH” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak: -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim: -

2. “W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	

What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

3. “SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavflar

2.1-rasm.

4. “VEER” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat

yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg’ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg’ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi.



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

2.2-rasm.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

5. “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

6. “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash;

	✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;
	✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish


7. “Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo’yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

8. Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

9. “Insert” metodi

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi

III.NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Psixologik xizmatni tashkil etish. (2 soat)

Reja:

1.1. Psixologik xizmatni tashkil etish.

1.2. Ta’lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Psixologik xizmat, amaliyotchi psixolog, shaxs, kasbiy yetuklik.

1.1.Psixologik xizmatni tashkil etish

Psixologik xizmat fani shakllanishining nazariy-ilmiy metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog‘liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat fani dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo‘lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmat fani haqidagi dastlabki mushohadalar eramizdan oldingi davr mutafakkirlari Fales (er.o.VII-VI asrlar), Aflotun (er.o.V-IV asrlar), Anaksimion (er.o. V asr), Geraklit (er.o. VI-V asrlar), Demokrit (er.o. V-IV asrlar), Epikur (er.o.V-IV asrlar) Galen (er.o. II asr) kabilar nazarida o‘sha davr uchun muayyan ma’noda ilmiylik kashf etgan mulohazalarni alohida ta’kidlash joiz.

Qadimgi dunyoning bir muncha keyingi rivojlanish davrlarida ham tibbiyot, fiziologiya, fizika, mantiq kabi fanlar tizimidagi yangi kashfiyotlar inson psixologik holatini adekvat tushunish va tavsif etish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarga asos solindi. Jumladan, rimlik shifokorlar Gippokrat (er.o. V asr), Galen (er.o. II asr), Demokrit (er.o. V-VI asr), Epikur (er.o. IV-III asr), Demokrit (er.o. V-IV asr), Sokrat (er.o. V-IV asr) kabi mutafakkirlarning mushohadalari dastlabki psixologik xizmat tushunchalarining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, “psixika”, “ong” tushunchalari tibbiy fiziologik bilimlar bilan bir muncha sayqal topdi. Ayni paytda fransuz olimi R.Dekard (1596-1650) tomonidan individ xulq atvorining reflektorlik tabiatiga xos jihatlarning ilk bor kashf etilishi va uning 18 keyinchalik rus olimlari I.S.Sechenov va I.P.Pavlovlar tomonidan o‘ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta’sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716), ingliz faylasuflari Jon Lokk (1632-1704), Gartli (1705-1757), fransuz olimi Didro (1713- 1784) kabilar tomonidan psixologiyada assotsiativ qonuniyatlar haqidagi ta'limotlarning yaratilishi psixologik bilimlarni yanada takomillashuvini ta'minlashga xizmat qildi. Jumladan, psixologiya fanining eksperimental, psixoanolitik, bixevioristik, empirik, geshtalt, psixogenetik, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo'nalishlari tomonidan olingan ma'lumotlar tizimi hozirgi zamon psixologik xizmat fani ildizlarining yaratilishiga asos bo'ldi. Jumladan, o'tmishdagi tarixiy davr sivilizatsiyasi vakillaridan biri Aflotunning (eramizdan oldingi 428/427—347-yillar) xizmatlari shundaki, u jonning qismlari to'g'risidagi dastlabki psixologik tushunchani yaratdi. Shunday qismlardan aql-idrokni, jasoratni va orzu-istakni alohida ajratib ko'rsatdi va ular tananing turli qismlari (bosh, ko'krak, qorin bo'shlig'i)da joylashgan bo'ladi, degan fikrni ilgari surdi. Uning «g'oyalar» ko'rinmas, lekin tabiatning narigi tomonidagi oliy dunyoni tashkil etuvchi azaliy o'zgarmas mohiyatlar ekanligi to'g'risidagi ta'limoti katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jonning aql-idrokli qismi omonat tanaga jo bo'lgunga qadar ana shu dunyoga daxldor. U tanaga jo bo'lib olgach, tug'ilishga qadar ko'rilgan narsalarni eslay boshlaydi. Xotiralar qanchalik yorqin bo'lsa, unda haqiqiy bilimlar shunchalik ko'p ochilib boraveradi, degan fikrni ilgari surdi.

Aflotun, psixologiyada dualizmning, ya'ni moddiy va ruhiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustaqil va antogonistik ibtidolar tarzida tushuntiradigan ta'limotning asoschisiga aylandi. Aflotunning dualizmiga qaraganda uning shogirdi Arastu (eramizga qadar 384-322 yillar) ning ta'limoti ancha muvaffaqiyatli ravishda ilgarilab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy-ilmiy asosda qayta ko'rib, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi. Arastuning «Jon to'g'risida»gi asari dastlabki psixologik tushunchalarning bir muncha takomillashuvini shakllantirdi. Arastu ruhiy faoliyatni o'rganishning tajriba va obyektiv metodini insonga psixologik yondashuv mahsuli sifatida tahlil qilish g'oyasini ilgari surdi. Shu asnoda Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonni tananing ajralmas qismi ekanligini targ'ib qildi. Jon 19 qismlarga bo'lina olmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, akl-idrok kabi turlariga oid qobiliyatlarida namoyon bo'lishini asoslab berdi.

Arastu ilk bor ilgari sezgi a'zolariga ta'sir o'tkazgan narsalar obrazlarining tasavvur tarzida mavjudligini kashf etdi. U shuningdek bu tasvirlar o'xshashligi, turdoshligi va keskin farqlanishi kabi uchta yo'nalishda birlashuvini ham ko'rsatdi, bu bilan psixik hodisalar assotsiatsiyasi (bog'lanishi)ning asosiy turlarini ochib berdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan imkoniyatlarini faqat o'zining xususiy faolligi orqali ro'yobga chiqarishiga asoslangan holda xarakterning real faoliyatida shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi. Bu nazariya insonga psixologik xizmat ko'rsatish fani bilan bog'liq dastlabki ilmiy tamoyillarning yaratilishi bilan bevosita aloqadordir.

Bundan tashqari eramizdan oldingi II asrda rimlik vrach Galen fiziologiya va tibbiyotning yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik negizi haqidagi tasavvurlarni boyitdi va ong tushunchasiga yaqinlashib keldi. U diqqat, xotira, mulohaza ishtirok etadigan harakatlarning kishi, masalan, uyqusida bajaradigan harakatlardan chegaralanishni ko'rsatib beradi. Keyinchalik bu nuqtai nazar psixologik xizmat fani tarixida introspeksionizm nomi bilan atala boshlandi.

XVII asr biologik va psixologik bilimlar taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Chunonchi, Fransuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulqatvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga egaligining kashf etilishi ana shu g'oya bilan uzviy bog'langandir. Olim yurakdagi mushaklarning ishlashi qon aylanishining ichki mexanikasi bilan boshqarib turilgani kabi xulq-atvorning hamma darajalaridagi boshqa mushaklarning ishlashi ham xuddi soat mexanizmida millarining aylanishiga qiyoslovchi psixologik taxminni ilgari surdi. Zero, Dekart mushaklar tashqi turtkilarga ruhning hech qanday aralashuvisiz, asab tizimining tuzilishi e'tibori bilan ham javob qaytarishga qodirligini ham isbotlab berdi. Binobarin, Dekart o'zining «asab mashinasi» g'oyasi bilan sezgilar, assotsiatsiyalar, kuchli ehtirolar qanday yuzaga chiqishi mumkinligini tushuntirib berdi.

2. Ta'lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlod kelajagini har tomonlama takomillashgan va ijtimoiy taraqqiyot talablariga to'la-to'kis javob bera oluvchi ta'lim tizimining muvaffaqiyatli tatbiqisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ta'limning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o'quv faoliyatining har bir o'quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas'uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmat sifatida tasavvur qilib bo'lmaydi. Qolaversa, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda, o'quvchilarni u yoki bu kasbga yo'naltirishdagi o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini aniqlashda, ularning o'z-o'zini anglashlarida, o'quv jarayoni, o'quvchilar jamoasi, o'quvchi-o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq barcha muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlashdagi psixolog olimlarning bugungi yutuqlari haqida yetarli dalillar mavjud. Masalan, I.V.Dubrovina tadqiqotlarida maktabda psixologik xizmatni tashkil etishdagi nazariy va amaliy jihatlarining asoslanishi, L.I.Bojovichning o'quvchi shaxsi va uning maktab yoshidagi shakllanish bosqichlarini psixologik tasniflovchi empirik ma'lumotlari, A.G.Asmolovning o'quvchi faoliyati va ustanovka uyg'unligini izohlab beruvchi tadqiqotlari, D.I.Feldshteynning ontogeneza rivojlanuvchi shaxs ijtimoiy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqiy ko'rsatmalari, YE.A.Klimovning o'quvchini kasbga yo'naltirishdagi individual uslubni o'zida mujassamlashtirgan psixologik ishlanmalari, V.S.Merlinning o'quvchi shaxsidagi individual va sotsial tipik xususiyatlar psixologiyasini izohlab berishga qaratilgan asarlari, E.G'.G'oziyevning ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat vazifalarini qayd etishga bag'ishlangan ko'rsatmalari, M.G.Davletshinning O'zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy fikr-mulohazalari, G'.B.Shoumarovning Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog'liq yangiliklar, muammolar va yechimlarga bag'ishlangan nazariy-ilmiy va ijtimoiy-amaliy ahamiyatga molik fikr-mulohazalari, Sh.R.Barotovning ta'limda psixologik xizmat amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari, B.R.Qodirovning O'zbekistondagi iqtidorli va iste'dodli bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy asarlari shular jumlasidandir.

Ayniqsa, bugungi kunda o'zbekistonlik psixologlar guruhi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta'limi

tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi Nizom”ning ishlab chiqilishi va uni Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi O‘zbekistondagi psixologik xizmat tizimining rasmiy tarzda “jonlanishi” va taraqqiy etib borishi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ushbu “Nizom” ta’lim muassasalarida tatbiq etilajak psixologik xizmat tizimining asl maqsadi, mazmuni, mohiyati, ahamiyati, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish va shu tasavvur asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun o‘ziga xos qo‘llanma va yo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi ana shu “yo‘llanma” asosida bugungi kunda Respublikamiz miqyosida talaygina ta’lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi tashkil etilgan.

Darhaqiqat, Respublika xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi, dastavval, o‘quvchi shaxsini har tomonlama tushunib tahlil qilish va rivojlantirish borasida o‘ziga xos yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, hamma rivojlangan davlatlarda va hamma zamonlarda ham inson omilidan unumli foydalanish muammosi eng dolzarb muammo hisoblangan. Ushbu muammoni bartaraf etish esa eng birinchi navbatda o‘quv maskanlaridagi har bir o‘quvchi shaxsiga, o‘quvchilar jamoasiga bo‘lgan psixologik yondashuvning mazmuniga, mohiyatiga va saviyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Umumta’lim maktablarida tashkil etilgan psixologik xizmat tizimi uchun mo‘ljallangan “Psixologik xizmat Nizomi”ga kiritilgan barcha vazifalarni ma’lum ma’noda maktab o‘quvchisining psixologik himoyalaniishini shakllantirishga qaratilgan vazifalar sifatida talqin qilish mumkin. Chunki, psixologik xizmat jarayonida har bir o‘quvchini o‘zini o‘zi anglashga, o‘zidan o‘zi unumli foydalanishga, o‘z individual imkoniyatlarini namoyon qilishga va rivojlantirishga, faoliyat jarayonida sodir etilishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarga va ayrim tanglik holatlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan tadbirlar ko‘lami muntazam ravishda amalga oshirilib boriladi. Bularning barchasi esa ayni paytda, psixologik muhofaza imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan uslubiy vositalar sifatida xarakterlanadi. Shunga muvofiq, bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari o‘quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-

psixologik muhofazani takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirmoqdalar.

Har bir sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitning har bir o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sirini tarkib toptirish.

Har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘z-o‘ziga adekvat baho bera olishini ta’minlash.

Har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini bilishi, anglash, idora qilish va o‘zo‘zidan ijtimoiy ma’noda muvaffaqiyatli qoniqish hosil qilishi uchun shartsharoitlarni hozirlash.

Har qanday o‘quv faoliyati talablarini bajarish jarayonida o‘quvchining meyoriy-hissiy holat chegarasidan chiqib ketmasligi uchun barcha tadbirlarni qo‘llash.

O‘quvchining faoliyat talablariga va aksincha, faoliyat talablarining o‘quvchi shaxsiga moslasha olishlarini ta’minlash.

O‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-jamoa o‘rtasidagi hamkorlik faoliyati uchun muhim muvaffaqiyatli munosabatlar o‘rnatila borilishini muntazam nazorat ostiga olish.

O‘quv faoliyati talablarini muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi o‘quvchi shaxsi faolligi bilan bog‘liq individual uslub imkoniyatlarini o‘rganish va qaror toptira borish.

Har bir o‘quvchini maktabga qabul qilishda u yoki bu fan bo‘yicha chuqur o‘zlashtiruvchi sinflarga jalb etish orqali kasb tanlashga yo‘llashda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar berib borish.

K.K.Platonovning “Shaxs strukturasi” usuli asosida va unga Sh.Barotov tomonidan ayrim o‘zgartirishlar kiritilgan holda qayta ishlab chiqilgan “Shaxs kartasi” ustida ish olib borish (har bir o‘quvchi bilan, albatta).

YE.A.Klimovning kasblarni tanlashga oid ishlab chiqqan metodikasining Sh.Barotov tomonidan o‘zbek tiliga moslashtirilgan variantini qo‘llash asosida har bir o‘quvchi uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish.

E.G‘.G‘oziyev tomonidan tavsiya etilgan “Ta’lim muassasalari psixologining vazifalari” asosida ilmiy-amaliy ish faoliyatini rejalashtirish.

Umumiy psixologik xizmat Nizomi asosida psixo- profilaktik, psixodagnostik va psixokorreksion ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish.

Maktab amaliyotchi psixologlari faoliyati muayyan talab asosida ishlab chiqilgan tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida tashkil etiladi.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri haqida qisqacha izoh berish mumkin:

I.Ilmiy-nazariy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha amaliyotchi psixologning quyidagi vazifalarni bajarishi talab qilinadi:

- psixologik xizmatning metodologik asoslari haqida bilim, tushuncha va tassavurga ega bo‘lish;

- o‘quvchi shaxsiga psixologik yondashuv uchun samarali foyda bera oluvchi psixologik usullar, tamoyillar va metodikalarni ajrata olish;

- umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, tibbiy psixologiya fanlari bo‘yicha tegishli bilimlarni o‘zlashtirish;

- O‘zbekistondagi psixologik xizmat konsepsiyasi haqida axborotga ega bo‘lish;

- o‘z-o‘zini ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirish bilan bog‘liq kunlik, haftalik, oylik va yillik ish rejalarini tuzish va bajarish.

II.Ilmiy-tashkiliy faoliyat yo‘nalishlari quyidagi vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi:

- har kunlik, haftalik, oylik va yillik taqvimiy ish rejasi tuzish, uni hududiy psixologik xizmat markazi tomonidan tasdiqlatish;

- psixologik xizmat xonasini kerakli jihozlar, ko‘rgazmalar va boshqa barcha materiallar bilan to‘ldirish;

- Maktabdagi har bir o‘quvchi uchun “Shaxs psixologik kartasi”ni tuzish va shu ma’lumotlar (ko‘rsatkichlar) asosida tegishli psixologik tadbirlarni belgilash;

- ota-onalar, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari va maktab rahbarlari bilan bajariladigan ishlar rejasini tuzish;

■ har bir sinfdagi o‘quvchilar guruhi, alohida referent, rasmiy va norasmiy guruhlar, liderlar va ayrim “ajralib qolgan” o‘quvchilar bilan individual ish olib borish rejasini tuzish;

■ o‘quvchilarni maktabga qabul qilish va kasbga yo‘llash bilan bog‘liq psixologik ishlar ko‘lamini belgilash;

Ilmiy-tadqiqiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi vazifalarning bajarilishi nazorat qilinadi:

■ maktab amaliyoti uchun zarur psixologik usullarni qo‘llash va olingan ma’lumotlarni qayta ishlash asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqara olish;

■ psixologik qonuniyatlarni bilish va shu asosda namoyon bo‘luvchi yosh xususiyatlari, individual xususiyatlar va o‘quv motivlariga xos jihatlarni muntazam o‘rganib borish, tadqiq qilish, fikr-mulohazalar yuritish;

■ o‘quvchi faolligiga, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish orqali o‘z-o‘zini himoya qilishga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta’sir etuvchi omillarni obdon o‘rganish, tadqiq qilish va tadbirlarni belgilash;

■ o‘quv faoliyati samaradorligini aniqlashga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va tadqiq qilish;

■ psixologik yondashuv samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi mavzular, kuzatishlar asosida izlanishlar olib borish, u yoki bu o‘quvchida yuz berayotgan o‘zgarishlar sababini o‘rganib borish;

■ o‘z kuzatishlari va amaliy faoliyat natijalari bo‘yicha ilmiyamaliy anjumanlar uchun ma’ruzalar tayyorlash.

III. Ilmiy-uslubiy yo‘nalish vazifalarini quyidagi tartibda belgilash ko‘zda tutiladi:

■ psixologiya fanida tan olingan va muayyan talablar asosida modifikatsiya qilingan usullarni qo‘llay olish va ulardan ilmiy maqsadlar yo‘lida umumiy foydalanishni ta’minlash;

■ har bir o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos individual- psixologik imkoniyatlariga mos yondashuv yo‘llarini to‘g‘ri belgilay olish;

■ shaxs va shaxslararo munosabatlar qaror topishi bilan bog‘liq ijtimoiy psixologik muhitni to‘g‘ri tashkil qilish va yo‘naltira olish;

■ psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar ko‘lamini ilmiy jihatdan puxta va samarali tarzda rejalashtirish.

■ qo‘llanilgan va qo‘llanilishi lozim bo‘lgan usullar samaradorligini muntazam nazorat qilish;

■ **Ilmiy-amaliy yo‘nalishdagi** vazifalar ko‘lami quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

■ bolalarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish;

■ har bir bola iqtidorini aniqlash va unga mos ta‘lim tarbiya yo‘nalishlarini belgilash;

■ o‘quvchining kasbga yo‘nalishini belgilash va maqsadli psixologik yondashuv asosida uni rivojlantirish.

■ har bir sinfdagi shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish va tegishli tavsiyalar berish.

■ har bir bolaning yosh, individual-psixologik, hissiy-irodaviy xususiyatlarini aniqlash asosida tegishli tadbirlar belgilash va uni amalga oshirish;

■ differensial (tabaqalashgan) ta‘limga, to‘garaklarga jalb qilinuvchi o‘quvchilarni belgilashda faol ishtirok etish;

■ darsning psixologik tahlili asosida ayrim o‘quvchilarga, sinf rahbarlariga va fan o‘qituvchilariga tegishli maslahatlar berish;

■ ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirishda faol ishtirok etish;

■ aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bor bolalar bilan individul ishlar olib borish;

■ maktab tomonidan qabul qilingan qo‘shimcha o‘quv dasturlarini tuzishda faol ishtirok etish;

■ har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashi asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga nisbatan namoyon bo‘luvchi individual ish uslubini o‘rganish va rivojlantira borish;

■ o‘quv faoliyati jarayonida namoyon bo‘luvchi har bir o‘quvchidagi meyoriy hissiy holatning yaratilishini ta’minlash va uni nazorat qila borish;

■ o‘quvchining o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga va faoliyatning ijtimoiy qimmatiga nisbatan muvaffaqiyatli munosabatlarining o‘rnatilishini nazorat qila borish;

■ subyektiv ijtimoiy ehtiyojlarning anglanishi va qondirilishini nazorat qila borish;

■ har bir o‘quvchidagi faoliyat va individual imkoniyatlar mutanosibligining ta’minlanishini kuzatib borish;

■ faollik va ijtimoiy ustanovka adekvatligining ta’minlanishini nazorat qila borish.

Xullas, yuqoridagi yo‘nalishlarning barchasi maktabda psixologik xizmat tizimini amalga oshiruvchi amaliyotchi psixologlar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Ayni paytda, ushbu yo‘nalishdagi vazifalarning bajarilish jarayoni “Nizom” da belgilangan umumiy amaliy vazifalar – psixodiagnostik, psixologik maorif, psixoprofilaktik, psixokorreksion va psixologik maslahat kabi amaliy ishlar ko‘lamining yuqori saviyada olib borilishini ham taqozo etadi. Bu vazifalarning to‘liq mazmuni va matni “Nizom ”da batafsil bayon etilgan. Ushbu “Nizom”dagi vazifalarga qo‘shimcha ravishda “psixologik himoyalaniшни yanada mustahkamlash bilan bog‘liq ayrim ishlarni ham kiritish tavsiya etiladi. (SH.Barotov - 1997)

Masalan: Psixodiagnostik ishlar ko‘lami bo‘yicha “Nizom”da ko‘rsatilgan 18 ta vazifaga (“Nizom” ning 6-9 betlariga qarang) qo‘shimcha qilib, yana quyidagi 3 ta vazifa (ya’ni 19-20 va 21 vazifalarni)ni bajarish amaliyotchi psixologlarga yuklatiladi: o‘quv faoliyatining tashkil etilishi va o‘quvchining individual imkoniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro adekvatlikning qay darajada qaror toptirilayotganligini aniqlash (1-qo‘shimcha topshiriq).

Har bir o'quvchining o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish bilan bog'liq individual uslubini aniqlash (2-qo'shimcha topshiriq). O'quv faoliyati jarayonida xar bir o'quvchining o'z-o'zini muvaffaqiyatli idora qilishining ta'minlanishi bilan bog'liq meyoriy hissiy faollik ko'rsatkichlarini aniqlash. (3-qo'shimcha topshiriq).

“Nizom”dagi psixologik maorif ishlar (3-4-betlarga qarang) qatoriga esa qo'shimcha 2 ta vazifani kiritdik. Ya'ni “Nizom”da jami 7 ta vazifa qayd etilgan bo'lsa, 8-vazifa qilib ota-onalar, fan o'qituvchilari va sinf rahbarlariga psixologik muhofaza imkoniyatlari va istiqbollari xususida maxsus ma'ruzalar tashkil qilish; 9-vazifa qilib esa maktab devoriy ro'znomasida “O'z-o'zini o'rganish” rukni ostida muntazam ravishda turli tavsiyalar berib borish topshirig'i yuklatiladi. “Nizom” da qayd etilgan 17 yo'nalishdan iborat psixoproflaktik ishlar (4-5-betlar) qatoriga 18-qilib “Psixologik himoyalaniish ko'rsatkichi nihoyatda past o'quvchilarning o'zlari, ota-onasi, sinf va fan o'qituvchilariga alohida ko'rsatmalar berish; 19-vazifa qilib esa “har bir o'quvchiga beriladigan o'quv topshiriqlarining, o'quv yuklamalarining, dastur va darsliklardagi ko'rsatmalarining o'quvchini hissiy zo'riqishlarga (stress holatlariga) olib kelmaslik nuqtai nazaridan tahlil qilish, kerak bo'lsa tavsiyalar, yo'llanmalar berish” kabi maxsus yo'naltirilgan topshiriqlar kiritiladi.

IV “Nizom”da belgilab berilgan “Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar” (9-11-betlar) qatoriga esa 9-ish sifatida “Har bir o'quvchi uchun xarakterli bo'lgan faoliyatdan ijtimoiy qoniqishga nisbatan psixologik muhofaza meyorlari asosida tarkib toptirish lozim bo'lgan rivojlantiruvchi va korreksion tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish” vazifasi kiritiladi. “Nizom” dagi V psixologning konsultativ (psixologik maslahat) ishlari (11-12-betlar) qatoriga 9-10 ish qilib, “Har bir o'quvchi faoliyatida namoyon etilgan psixologik muhofaza ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, muntazam ravishda tegishli individual maslahatlar berib borish va o'qituvchilarga o'quvchi individual uslubini (o'quv faoliyatiga nisbatan, albatta) tushunish, tahlil qilish va rivojlantirib borishga qaratilgan tavsiyalar berib borish” vazifasini yuklatish mumkin.

Demak, ta'lim muassasalarida yuqoridagi vazifalarni muntazam ravishda bajarib borish uchun qo'yilgan talablardan kelib chiqib amaliyotchi psixologlar tegishli darajada psixologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari shart va zarurdir.

Umumta'lim maktablarida psixologik xizmat amaliyoti

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar tarbiyasiga va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiyroq e'tibor berish masalasiga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, chunki kichik maktab yoshi yoki o'smirlik davri har bir bolaning butun umri davomidagi o'ziga xos ijtimoiy fundament vazifasini o'taydi. Ushbu "tamoyil" ning qanchalik mustahkamligi bolaning individual va intellektual taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirishini maktabdagi psixologik xizmat amaliyotisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, maktabga psixologik xizmat amaliyoti turli davlatlarda turlicha shaklda tashkil etilganligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, har bir davlat o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib psixologik xizmat amaliyoti mexanizmini yo'lga qo'yganligini ko'ramiz. Shunday bo'lsa-da, mazmunan ushbu jarayonga yondashuv mezonini bir xil ekanligini kuzatish mumkin. U ham bo'lsa o'quvchilar bilan tizimli tarzda olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodiagnostik, psixokorreksion va psixokonsultativ ishlar ko'lamining mavjudligidir. Maktabda tahsil olayotgan har bir o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi bilan olib boriladigan ushbu yo'nalishlarning barcha, avvalo, o'quvchi shaxsi tarbiyasiga hamda taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning tashkil etilishi uning mazmuni va asosiy vazifalari haqida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chop etilgan "Psixologik xizmat Nizomi"da batafsil ko'rsatmalar berilgan. Ushbu ko'rsatma va tavsiyalar asosida bugungi kunda maktabda psixologik xizmat amaliyoti olib borilmoqda (mazkur "Nizom"ga qaralsin).

Umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning zarurligi har bir o'quvchining o'ziga xos "betakror olam"ga adekvat bo'lgan tarbiya usullarini qo'llay bilish, har qanday vaziyatda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri yo'naltira olish,

o'quvchini maktab ta'limiga qabul qilishda va uni kasbga yo'nalganligini belgilashda to'g'ri yo'l tuta bilishda yanada yaqqolroq ko'rinadi. Chunki guruh rahbari yoki fan o'qituvchisi o'quvchining psixologik tabiati va imkoniyati haqida to'laqonli bilimga ega emasligi tabiiy. Bu ishni esa mukammal psixologik bilim va malakalarga ega bo'lgan professional mutaxassislar amalga oshirishi mumkin. Qolaversa, shaxs taqdiri bilan hazillashib bo'lmaydi. Birgina aytilgan noo'rin so'z yoki noto'g'ri harakat o'quvchining butun hayotini, xulq-atvorini yoxud hayotga, odamlarga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Psixolog umumta'lim maktabida xizmat ko'rsatar ekan, avvalo undan har bir yosh davriga xos bo'lgan psixologik qonuniyatlarni to'g'ri baholay olishi va shu qonuniyatlarga tayangan holda o'quvchi faoliyatini boshqarishi talab qilinadi. Har qanday psixologik xizmat u yoki bu o'quvchidagi psixologik zaxiralarni o'rganib, uni ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlashga yo'naltira olishi shart. Shuningdek, psixologik xizmat bolalardagi iqtidor kurtaklarini oldindan anglab, uni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib bera olishi kerak bo'ladi.

Qolaversa, har bir bolaning taqdiri to'g'ri tarbiyasi va o'ziga xos psixologik taraqqiyoti uchun barcha ta'lim muassasasi rahbarlari qatori, eng avvalo, maktab psixologiga ham alohida mas'uliyat yuklatilganligini esdan chiqarmaslik kerak bo'ladi. Demak, maktab psixologi har bir yosh davri va uning o'ziga xos psixologik imkoniyatlari, qiyinchiliklari, muammolari va istiqbollari haqida ham to'g'ri fikrlay olishi zarur.

Endi ushbu yosh davrlarining psixologik mohiyati va unga mos bo'lgan psixologik xizmat yondashuvining muayyan imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz.

Nazorat savollari

1. Psixologiya xizmat fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Ta'lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari nimalardan iborat?

2. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyotiga qo'yilgan talablar qaysilar?

2-Mavzu: Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari. (2 soat)

Reja:

2.1. Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari.

2.2. Psixokorreksion dastur tuzishda qo'yiladigan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

2.1. Amaliy psixolog faoliyatining asosiy vazifalari

Psixologning mijoz bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy topshiriq va vazifalarning rang-barangligi bilan belgilanadi. Amaliy psixolog faoliyatiga nisbatan ijtimoiy buyurtma jamiyat talablari yoki aniqroq qilib aytganda uning ma'lum qismida shakllanadi ya'ni yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda mutaxassisning yordami zarur bo'lgan vaqtda ehtiyoj seziladi. Uning faoliyatining muhim va zaruriy jihati o'qituvchi shaxsini tushunishdir. Aynan shuning uchun amaliy psixologiya ta'lim sohasida rivojlangan. Lekin hozirgi kunda amaliy psixologiyaga har bir sohada zarurat tug'ilmoqda.

Amaliy psixologiya biznes, reklama faoliyatida hamda boshqaruv sohasida faol rivojlanmoqda. Hozirgi kunda imidjmeyster, siyosatchilar, psixologlari bilan ishlash zarurati tug'ilmoqda. SHuning uchun mazkur sohalarda faoliyat yuritadigan psixologlarga ehtiyoj tug'ilmoqda. G.S.Abramova psixologik ma'lumotlari sirasiga buyurtmachi, mijoz, foydalanuvchi kabi tushunchalarni kiritadi. Uning fikricha, mazkur tushunchalar quyidagilarni anglatadi. Mijoz-bu o'zi yoki boshqa shaxslar haqidagi bilimlarni psixologga etkazadi. Shunga ko'ra u o'zining bu psixologik ma'lumotlarni tarkibi uchun javobgarlikni his qiladi. Buyurtmachi-psixologga psixologik ma'lumot uchun murojaat qiluvchi shaxs (o'zi, tashkilot yoki boshqa shaxslar haqida).

Foydalanuvchi-psixologdan psixologik ma'lumotlarni oluvchi shaxs. Shuningdek, psixologik yordam, psixologik hamkorlik, psixologik qo'llab-quvvatlash va psixologik kuzatuv amaliy psixologning asosiy faoliyat yo'nalishlaridir. Psixologik yordam barqarordir. Bu tushunchaning tarkibi amaliy psixologning kasbiy faoliyatini asosiy yo'nalishlarini barchasida ya'ni psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat va psixoterapiyada namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ko'pincha psixologik yordam ko'rsatish deganda shaxsning ijtimoiy-psixologik

moslashishi va ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganlarga yordam ko'rsatishi tushuniladi. Bunda psixologning vazifasi shifokorning vazifasiga o'xshab ketadi: bemorga dastlabki tashxisni qo'yish, inson hayot faoliyatini me'yorlashtirish, uni jamiyat hayotiga samarali kirib borishini ta'minlashdan iborat. Yuqoridagilardan farqli ravishda 80-yillar o'rtalarida yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning asosiy g'oyasi "hamkorlik" tushunchasini olg'a surishdir. Yangi yo'nalishning mohiyati faqat muammosi mavjud insonlarga yordam ko'rsatish emas, balki psixolog barcha shaxslarga ularning rivojlanishlariga yordam ko'rsatishdan iboratdir.

"Hamkorlik" atamasi bilan deari bir vaqtda yordam tushunchasi ham paydo bo'ldi. Ta'lim amaliy psixologiyasi va ilmiy adabiyotlarda yuqoridagilarga bog'liq ravishda quyidagilar paydo bo'la boshladi ya'ni "Ta'lim jarayoniga psixologik yordam", "Ta'lim muhitiga psixologik yordam", "Bola shaxs rivojlanishiga psixologik yordam"

shu

kabilar.

So'nggi yillarda moskvalik mashhur mutaxassis M.R.Bityanova va amaliy psixologlar G.Bardier, I.Ramazon va T.CHerdyanikovalarning sa'i harakatlari natijasida "psixologik hamkorlik" iborasi keng qo'llanila boshlandi. Hamrohlik ideologiyasi bolaning hayotida uchraydigan qiyinchilik, to'siqlarni hal qilib bermasdan balki uni o'zi mustaqil hal qilishi uchun shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Amaliy psixolog faoliyati qanday nuqtai nazardan qaralmasin yordam hamkorlik, ko'mak kabi faoliyatning 5 ta asosiy yo'nalishi haqida to'xtalish mumkin.

1.Psixoprofilaktika tashkilotda faoliyat yurituvchi shaxs yoki ta'lim muassasasidagi bolalarni dezadaptatsiyasi haqida xabar beruvchi muassasada sog'lom psixologik muhitni yaratish uchun tushuntirish ishlarini olib boruvchi insonlarni psixologik muammolardan xabardor qilish va undan xolos qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazish faoliyatlari nazarda tutiladi.

2.Psixodiagnostika uning asosiy maqsadi ma'lum bir shaxs yoki guruh haqida psixologik ma'lumotlar olish inson haqidagi aniq bilimlarni umumlashtirgan holda ilmiy nazariya asosida qo'lga kiritishdir.

3. Psixologik korrektsiya mijoz ruhiyatining u yoki bu jabhasiga maqsadga yo'naltirilgan ta'sir sifatida tushuniladi, uning ko'rsatkichlarini yosh yoki boshqa me'yorlarga mos ravishda muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan.

4. Psixologik maslahat uning asosiy maqsadi insonni kerakli psixologik ma'lumotlar bilan ta'minlash va kerakli shart-sharoitni yaratish hamda psixolog bilan bo'ladigan muloqot natijasida hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etish moslashishlariga yordam ko'rsatishdir.

5. Psixologik model doirasidagi psixoterapiya, psixik kasalliklardan kelib chiqmagan holda jiddiy psixologik muammoli vaziyatlarda mijoz shaxsining samarali o'zgarishida yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Psixoprofilaktika ishining asosiy vazifalari

Psixoprofilaktika yo'nalishida psixolog faoliyati va vazifalari ta'lim tizimidagi amaliy psixologik xizmat doirasida aniq ko'rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat:

-ta'lim muassasalari shart sharoitiga bolalar, o'smirlar va yoshlarni moslashishi, pedagog, ota-ona, tarbiyachi va boshqalarga bolalarni muvaffaqiyatli moslashishiga yordam ko'rsatish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish;

-ta'lim jarayonining qatnashuvchilari bilan faoliyat olib borishning individual dasturini tuzish hamda o'quvchilarni ta'lim jarayoniga moslashishi va shaxsning ikkilamchi va garmonik rivojlanishini ta'minlash uchun mo'ljallangan;

-ta'lim tizimida yangi bosqichga o'tish jarayonidagi dezadaptatsion holat haqida xabar berishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratish;

-ta'lim muassasasida ijobiy psixologik muhitni yaratish bo'yicha turli xil faoliyatlarni amalga oshirish;

-pedagogik jamoadagi psixologik zo'riqishlar haqida xabar berish va bartaraf etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish.

Psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishlaridan biri sifatida

Psixodiagnostika nazariy va amaliy fanlardan bo'lib, u insonning individual psixologik xususiyatlarini o'rganishning turli metodlarini ishlab chiqish va bu metodlar asosida psixologik tashxis qo'yish bilan bog'liq. Diagnostika grekcha dia farq gnozis anglamoq degan ma'noni anglatadi. Amaliy psixolog odatda yangi metodikalarni

ishlab chiqish bilan emas, balki tuzilgan metodikalarni qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy psixolog psixodiagnostika faoliyat yo'nalishining quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi (R.S.Nemov 1995).

1. Insondagi u yoki bu psixologik holat yoki xulq-atvor xususiyatining miqdorini aniqlash;

2. Mazkur xususiyatning rivojlanganlik darajasini hamda ma'lum bir miqdor va sifat ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishini aniqlash.

3. zarur bo'lgan vaziyatlarda shaxsning tashxis qilinayotgan xulq-atvor va psixologik xususiyatlarini asoslash;

4. turfa xil insonlarda o'rganilayotgan xususiyatlarni rivojlanganlik darajasini taqqoslash.

Psixodiagnostikada test-bu bir turdagi standartlashtirilgan qisqa topshiriqlar seriyasidir. U mohiyatan mos bo'lgan sinaluvchilarga nisbatan taqdim etiladi.

Psixodiagnostik tadbirlar va ularga nisbatan bir qator talablar mavjudmi? Eng oddiy va muhimlaridan biri bu insonlarni o'ziga qarata olish va qo'llanilayotgan psixodiagnostik metodikalarni qo'llash shart-sharoitlarini aniq bilishdir. Bundan tashqari psixodiagnostika sohasida faoliyat yurituvchi har bir psixolog kasbiy etika tamoyillarini bilishi va amal qilishi lozim:

- o'tkazilgan psixologik tashxis uchun shaxsiy javobgarlik tamoyili;
- kasbiy sir saqlash tamoyili;
- konfidentsiallik tamoyili;
- ilmiy asoslanganlik tamoyili;
- ob'ektivlik tamoyili;
- shaxsning mustaqil huquqlarini ta'minlash tamoyili va o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

- A) psixologik tadqiqotlarda shaxs o'z hohishiga ko'ra qatnashishi;
- B) to'plangan natijalarni psixoprofilaktika nuqtai nazaridan bayon qilish;
- V) insonning o'zi anglamaydigan ma'lumotlar chiqishi haqida ham aytib o'tish;
- G) tadqiqot natijalarini bilish huquqi.

Psixodiagnostik metodlarni tasnif ularning umumiy xarakteristikasi va psixologik jihatdan asoslanganligi

Psixologik konsultatsiya kasb sifatida psixologik amaliyotning nisbatan yangi tarmog`i hisoblanadi. Mazkur kasb klinik buzilishlarga ega bo`lmagan, biroq psixologik yordamni izlagan insonlar ehtiyojiga javoban yuzaga kelgan. SHuning uchun psixologik konsultatsiyada biz avvalambor kundalik hayotda qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan odamlarga to`qnash kelamiz. Muammolari spektri juda keng bo`lib, ishlash joyidagi qiyinchiliklar (ishxonadagi qiyinchiliklar, o`z ishidan yoki kasbidan qoniqmaslik, shaxslararo nizolar, ishdan bo`shash ehtimoli), shaxsiy hayotdagi qiyinchiliklar va oiladagi kelishmovchiliklar, maktabda o`zlashtirmaslik, o`z o`ziga ishonchning etishmasligi, o`zini o`zi baholash tizimining pastligi, qaror qabul qilishdagi ikkilanishlar, shaxslararo munosabatlarga kirishish va qo`llab-quvvatlashning murakkabligi va x.k.lardan iborat. Boshqa bir tomondan psixologik konsultatsiya psixologik amaliyotning nisbatan yosh sohasi sifatida hozircha jiddiy belgilangan chegaralarga ega emas, uning doirasiga turli tuman muammolar kiradi.

Psixologik yordamning bu ikki sohasining taqsimlanishi murakkab vazifa bo`lib, profesional psixolog o`zining nima bilan shug`ullanayotganini aytishi qiyin – konsultatsiya bilan shug`ullanadimi yoki psixoterapiya bilanmi, aniqlab berishi mushkul. Konsultatsiyada ham, psixoterapiyada ham aynan bir klient va psixoterapevt shaxsiga qo`yiladigan talablar mavjud bo`ladi. Har ikkala holatlarda ham mijozga yordam konsultant (psixoterapevt) va mijoz o`rtasidagi o`zaro ta`sirga asoslanadi. Bu ikkala sohani bo`lish qiyinchiliklari tufayli ba`zi amaliyotchilar “psixologik konsultatsiya” va “psixoterapiya” terminlarini sinonim sifatida qo`llaydilar.

Holbuki juda ko`p mamlakatlarda mazkur kasblar alohida talqin etilsa-da, ularni qisman ajratish uchun asoslar etarlichadir. Bramer va Shostrom (1992), konsultatsiya va psixoterapiyaning o`zaro mutanosibligi haqida gapirar ekanlar, kontinuumning ikki nuqtasini tasavvur qilishni taklif etadilar. Birinchi nuqtada psixolog kasbi ong darajasida hal qilinuvchi vaziyatli muammolarni o`z ichiga oladi va klinik jihatdan sog`lom individlarda yuzaga keladidigan muammolar bilan shug`ullanadi Mana shu nuqtada konsultatsiya joylashadi. Ikkinchi nuqtada muammolarni ongsizlik

jarayonlariga yo'nalgan holda tahlil qilish, shaxs strukturasi qayta qurish bilan bog'liq klinik jihatdan sog'lom odamlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish yotadi. Bu erda psixoterapiya sohasi joylashgan. Nuqtalar orasidagi sohani ham konsultatsiya, ham psixoterapiya deb atash mumkin.

Gelso, Fretz (1992), Blosher (1966) psixologik konsultatsiyaning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar:

- konsultatsiya klinik sog'lom shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, psixologik qiyinchiliklar, nevrotik xarakterdagi shikoyatlari mavjud bo'lgan, o'zini yaxshi his qilayotgan, biroq o'z oldiga bundan keyingi rivojlanishni maqsad qilib qo'ygan shaxslarga yordam berishni nazarda tutadi; konsultatsiya shaxsning buzilishlar darajasidan qat'iy nazar sog'lom tomonlariga mo'ljallangan, bu mo'ljal ishonchga qaratilgan, ya'ni "inson o'zgarishi, uni qoniqtiradigan hayotni tanlashi, o'z iqtidorini namoyon qilish usullarini izlashi mumkin" degan ishonchdir (Jordan Myers, 1998);

- konsultatsiya ko'pincha mijozlarning hozirgi va kelajak kuniga yo'naltiriladi; konsultatsiya odatda qisqa muddatli yordamga mo'ljallangan (15 ta uchrashuv gacha);

- konsultatsiya shaxs va muhit o'zaro ta'sirida yuzaga keluvchi muammolarga yo'naltiriladi;

- konsultatsiyada konsultant ishtirokiga qadriyat sifatida qoraladi; konsultatsiya mijoz shaxsi rivojlanishiga va xulq-atvorini o'zgartirishga yo'naltirilgan.

Psixologik amaliyotda deyarli har kuni inson hayotining turli jabhalari bilan to'qnash kelishga to'g'ri keladi. Konsultant mijoz bilan birgalikda uning unchalik e'tiborga molik bo'lmagan yoki o'ta muhim muammolarini muhokama qiladi va unga yordam berishga harakat qiladi. Jumladan:

Kundalik tanlovlar motivlarini anglab olishda;

Juda emotsional muammolarni va shaxslararo munosabatlardagi chigalliklarni hal etishda;

Ichki qurquvni engishda va x.k.;

Shuning uchun konsultant kim bo'la olishi va uni mijoz qaynday inson sifatida qabul qilishni xohlayotganligini tushunishi kerak. Boshqacha qilib aytganda bu erda konsultant rolini aniqlash vazifasi turadi. Konsultant mijozga do'stmi, professional

maslahatchimi, o'qituvchimi, ekspertmi? Juda ko'p boshlovchi konsultantlarni aynan ana shu savol qiynaydi.

Konsultant mutaxassis faoliyati samaradorligi ko'p holatlarda uning psixokonsultatsiyadagi o'z o'rnini qanday tasavvur qilishiga bog'liq bo'ladi. Ana shu borada aniqlik bo'lmasa, o'z ishida ma'lum bir nazariy printsiplarga tayanmasa, balki faqatgina mijoz kutilmalari va ehtiyojlariga javob berishga intilsa, bunday mutaxassis yaxshi natijalarga erisha olmaydi. Mijozlar esa ko'pincha konsultantdan ularning muammolari uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni va butun muammolarni hal qilib berishni kutadilar, masalan qaerda o'qish, ishxonadagi muammolarni qanday hal etish, turmush o'rtog'idan ajrashsinmi yoki yo'qmi va x.k.

Ta'kidlash joizki, psixolog-konsultant faoliyati haqida gap ketarkan, uning psixodiagnostika bilan bog'liq faoliyati haqida ham gapirmasdan ilojimiz yo'q. Psixologiya doim juda qiziqarli masalalardan biri – mazkur konkret inson qanday odam ekanligini belgilarga qarab aniqlash masalasini hal etishga intilib kelgan. Bunday axborot insonning u yoki bu vaziyatdagi xulq-atvorini oldindan aytib berish ikoniyatini beradi, bu esa inson hayotining barcha sohalarida juda muhim hisoblanadi. Eng kuchli psixodiagnostik instrument – intellekt testlari tarixi 100 oldingi davrlarga borib taqaladi va Bine hamda Simon ishlari bilan boshlanadi. SHunga o'xshash tarzda shaxsni o'rganuvchi testlar ham – shaxslilik so'rovnomasi ham, proektiv metodikalar ham o'zining uzoq tarixiga egadir. Bu davrga kelib juda ko'p foydali psixometrik usullar ishlab chiqildi. Psixologik testlar yordamida shaxsni tadqiq etish – bu psixologik testlarni qo'llagan holda shaxsning ma'lum psixologik sifatlari va xossalarini tekshirishdir. Psixologik testlarni asosan o'qitish va tarbiyalashni optimallashtirishda, ishga qabul qilishda, psixoterapiya hamda psixologik konsultatsiya o'tkazishda, psixokorreksiya uchun qo'llaydilar.

SHuni ta'kidlash joizki, amaliy psixolog faoliyati faqatgina psixodiagnostik muolaja bilan yakunlanib qolmaydi. Psixokonsultatsiyani faqatgina psixodiagnostik tadqiqotlar bilan chegaralash professional jihatdan noto'g'ridir. Bundan tashqari gender effekt haqida gapirar ekanmiz, psixodiagnostik metodikalarni tanlashda ham psixolog - mijoz munosabatlarining to'g'ri shakllanishiga erishish uchun harakat qilish

lozim. Baʼzi psixodiagnostik metodikalarda, aynan soʻrovnomalarda keltirilgan savollarga ayollar erkak konsultant oldida javob berishga xijolat boʻladigan vaziyatlarga duch kelamiz va aksincha ayol konsultant oldida erkaklar ham oʻz ichki dunyosini ochishdan uyalib turadilar. Shu oʻrinda ham gender xususiyatlarni hisobga olish konsultativ faoliyat samaradorligiga taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Biz boshdan kechirayotgan bugungi oʻzgarishlar davri aynan isteʼdodli va iqtidorli, zexni oʻtkir, mulohazali, yangidan yangi kashfiyotlarga qodir insonlari tarbiyalashni talab qilmoqda va ikkinchi tomondan mustaqillikning oʻzi tub maʼnoda ana shunday barkamol avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni yaratib berdi.

Soʻnggi yillarda psixolog shaxsiga qoʻyiladigan talablar uning kasb malakasi, kasbiy mahorati, kasbiy tayyorgarligi, oʻz kasbining barcha jihatlarini har tomonlama toʻliq va puxta egallagan ustasiga xos sifatlari darajasini oshirib borishni taqozo etadi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, kasb malakasi, kasbiy mahorat, kasbiy tayyorgarlik darajasi, kasb ustasi kabi tushunchalarning xar biriga psixologik taʼrif va izoh keltirilgan. Shu bilan birga mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati bir-biriga juda yaqin va umumiy oʻzakka ega ekanligini hisobga olgan holda ularni umumlashtirib ifodalovchi tushuncha sifatida professionalizm deb nomlash maqsadga muvofiq ekanligi juda koʻp mualliflar tomonidan eʼtirof etiladi. Psixologiya uchun fundamental xarakterga ega boʻlgan psixologning amaliy faoliyati, avvalambor, psixik aks ettirish orqali taqozo etilgan hayot birligi boʻlib, uning haqqoniy funktsiyasi shundaki, u subʼektni predmetli dunyoda yoʻnaltiradi. Boshqacha qilib aytganda faoliyat – bu reaksiya emas, balki qurilish, oʻz ichki oʻtishlari va aylanishlari, oʻz rivojlanishiga ega tizimdir.

K.K.Platonov taʼrifida faoliyatning asosiy belgilari anglanganligi va maqsadga yoʻnalganligidir. G.V.Suxodolskiy nuqtai nazaridan faoliyatning asosiy tushunchaviy apparati oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

- “faoliyat subʼektini”;
- “faoliyat morfologiyasini”;
- “faoliyat motivatsiyasi va funktsiyasini”;
- «faoliyat dinamikasini”;

- “faoliyatlar xilma-xilligi”.

Muallif fikricha umumpsixologik kategoriya sifatida faoliyat ierarxik darajaga ega. U o'z ichiga tiplarni, sinflarni, sinfovi tuzilmalarini, sohalarini (shug'ullanish turi), ixtisosliklarni, predmetni (ixtisoslashuv) qamrab oladi. Aytilganlardan kelib chiqadiki, psixolog kasbiy faoliyati – mehnat faoliyati sinfi bo'lib, maqsadlar yig'indisiga erishish uchun mo'ljallangan hamda ma'lum xususiyatlar va son xarakteristikalariga egadir.

Keyingi tadqiqotlar mantiqi “kasbiy faoliyat”, “kasb”, “ixtisoslik” tushunchalarining o'zaro aloqadorligini ko'rib chiqishni talab etadi, ularning berilishi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin etilgan.

K.K.Platonov kasbni yashash manbai bo'lgan va mos o'quv yurtlaridagi ta'lim bilan ta'minlanuvchi, ma'lum bilimlar, ko'nikma hamda malakalar mavjudligini talab qiluvchi mehnat faoliyati sifatida aniqlaydi. Bu ta'rifga YU.V.Kotelova tomonidan berilgan ta'rif yaqinroq bo'lib, unga ko'ra kasb – bu faoliyatning tipik, tarixan shakllangan shaklidir, u ijtimoiy ma'noda zarur, uni bajarish uchun ishchi ma'lum bilimlar, ko'nikma va malakalar yig'indisiga, shuningdek, mos qobiliyatlar va shaxslilik xususiyatlariga ega bo'lishi zarur. “Kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi mazmunini qarab chiqib, T.P.Vodolazskaya va G.S.Nikiforov shuni ta'kidlaydilarki, ixtisoslik faoliyat predmeti orqali ochiladi. U istagancha tor yoki keng bo'lishi mumkin, lekin har qanday holatda – bu mos ilmiy predmet orqali aks etuvchi ob'ektiv reallikning birmuncha bo'limlari haqidagi bilimlar yig'indisidir. Kasb – ob'ektiv zarur, maqsad orqali aniqlangan, reallikning mazkur bo'limi bilan bog'langan faoliyatning alohida turidir. Mazkur ta'riflarga tayangan holda mualliflar shunday xulosaga keladilarki, bir ixtisoslik doirasida real tarzda har biri o'z maqsadiga javob beruvchi mustaqil kasblar mavjud.

2.2. Psixokorreksion dastur tuzishda qo'yiladigan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Mehnatni ko'p talab etadigan psixologning tuzatish ishi ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar va bolalar guruhi yoki individual bir bola bilan hamkorlikda olib boriladi. Ishning ana shu turi ancha mehnat, vaqt, ko'p metod va metodikalarni qo'llashni talab

etsa ham ancha natijali hisoblanadi. Psixokorreksion dasturlarni tuzishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

- Korreksion ishning aniq maqsadini belgilash.
- Korreksion ishning konkret maqsadini aniqlovchi vazifalarni aniqlash.
- Ishning formasini aniqlash (individual, guruhiy yoki aralash).
- Metodika va texnikani ishlab chiqish.
- Korreksion ishga ketadigan umumiy vaqtni aniqlash.
- Uchrashuv kunlarini belgilab olish.
- Vaqtini aniqlash (boshida 10-15 minut, oxirida 1,5-2 soat)
- Korreksion dasturni ishlab chiqish va mazmun mohiyatini belgilab olish.
- Korreksion ishda yaqin qarindoshlarining qatnashuvini belgilash.
- Korreksion dasturni boshlashda dinamika va o'zgartirishlar bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilash.

Korreksion tadbir so'ngida korreksion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga baho beruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi.

Psixokorreksion tadbirlarning samaraliligini baholash quyidagicha mezonda aniqlanadi:

A) rivojlanishdagi qiyinchilikning yechilishi, barham topishi.

B) maqsad va vazifalarning belgilanishi korreksion mahsuldorligi uzoq muddatdan so'ng ish davom etayotganda, oxirida aniqlanadi.

Korreksion dastur muammoning butunlay hal bo'lishini oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo'qolishi va yechilishiga har tomondan baho berilayotganiga ham qaraladi.

Masalan: mijoz uchun dasturda ishtirok etayotgan vaqtda uning emotsional holatining yaxshilanishi, ijobiy his qilishi bilan belgilanadi.

Psixologuchunkorreksiondasturtashkil etilishi, majburiyatni his etishi oldiga qo'yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi.

Mijozning yaqinlari uchun esa, mijozda paydo bo'lgan muammoning qay tarzda ijobiy hal etilganligi bilan aniqlanadi. Korreksion dasturlarning ijobiy ta'sir doirasi uning intensivligidadir.

Korreksion mashg'ulotlar 1-1,5 soatdan oshmasligi, olib borilayotgan o'yinning ma'no jihatdan o'ylanganligi bilan ham bog'liq. Mashg'ulotlar tugagandan keyin ham iloji boricha mijozning taraqqiy etishi bilan qiziqib borish, muloqotni yo'qotmaslik bir, ikki oyda bir marotaba uchrashi lozim.

Korreksion dasturlar qancha erta aniqlanib ish boshlansa shuncha tez samara beradi.

Psixologik korreksiya dasturlarini tuzishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanish zarur:

1. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi masalalar tizimlilik tamoyili.
2. Korreksiya va psixologik diagnostikaning birligi tamoyili.
3. Kauzal ko'rinishdagi korreksiyaning ustivorligi.
4. Korreksiyaning faoliyatga doirligi tamoyili.
5. Mijozning yoshga doir psixologik va individual xususiyatlarini. inobatga olish tamoyili.
6. Psixologik ta'sir ko'rsatish metodlarining komplekslilik tamoyili.
7. Korreksiyaga mijozning ijtimoiy muhitidagi yaqin kishilarni jalb etish tamoyili.
8. Psixik jarayonlar tuzilmasining turli darajalariga tayanish tamoyili.
9. Dasturlashtirilgan ta'lim berish tamoyili.
10. Murakkablikka tadrijiy o'tish tamoyili.
11. Berilayotgan materialning hajmi va murakkablik darajasini hisobga olish tamoyili.
12. Materialning emotsional murakkabligini inobatga olish tamoyili.

Bu tamoyilda mijozning psixik taraqqiyoti uning atrofida qilarning roli bilan belgilanishi mumkinligini e'tirof etadi. Bola o'z yonidagi kattalar bilan aloqador hoida, birgalikdagi faoliyati orqali baholanadi. Zotan bola tevarak-atrofdagilardan ajralgan holda emas, balki ular bilan birgalikda rivojlanadi.

Shaxs jamiyatning a'zosi, ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir. Shaxsning boyligi, uning hayotga faol munosabati, boshqa kishilar bilan bo'ladigan aloqalarining turli-tumanligiga bogliq bo'ladi.

Har-bir bola yashaydigan ijtimoiy muhit bir emas, balki bir necha qavatdan (zonadan) iborat. Eng yaqin va birinchi qavat oilaviy muhitdir. Oilaga qaraganda kengroq qavatni bolanig qarindoshlari tashkil etadi. Va nihoyat, eng keng qavat-ijtimoiy muhit hisoblanadi. Undan tashqari bevosita hatti-harakat namunalari alohida kishilarning mulohazalari orqali emas, balki kitob va gazeta, radio, kino, televideniye, jamiyatda o‘matilgan qonunqoidalar, odamlar, axloqiy talablar, ma’naviyat, milliy qadriyatlar orqali amalga oshiriladi.

Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta’minlash bolaning o‘zini xotirjam his qilishiga yordam beradi.

Awal psixolog bilan birgalikda, keyinchalik mustaqil ravishda bajarish orqali zaruriy malakalarni shakllantiruvchi bir qator izchil muolajalardan iborat dasturlar yaxshi samara beradi. Korreksion ta’sir etishdan avval aniq korreksion ta’sir etish modelini tuzish lozim: umumiy, tipik (odatiy), individual.

Korreksiyaning umumiy modeli - bu har bir shaxs taraqqiyoti bir butun olingan shartlar tarmog‘idir, deydi. U insonning tevarakatrof, uni o‘rab turuvchi dunyo haqidagi farazlarini chuqurroq, haqqoniy, kengroq bodishiga, insonlar haqida, ular orasidagi munosabat, jamiyatdagi o‘zgarishlar, ulaming faoliyatlarini analiz qila olish, kuzata olishiga sharoit yaratadi.

Korreksiyaning bu modelida mijozning sog‘lig‘i, mashg‘ulotning vaqti aniq belgilab olinadi. Korreksiyaning tipik (odatiy) modeli - amaliy harakatlarni uyushtirishning turli negizlariga asoslanadi; harakatlarning turli komponentlarini o‘zlashtirishga va turli harakatlarni tadrijiy ravishda shakllantirishga qaratilgan.

Korreksiyaning individual formasi o‘z ichiga mijozning o‘ziga xos bodgan individual tomonlarini hisobga oladi - uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti, odgana olish qobiliyatlari kabi. Standartlashtirilgan va erkin korreksion dasturlar mavjud:

1) Standartlashtirilgan dasturda korreksiyaning har bir bosqichida materiallar, qatnashchilarga qo‘yiladigan talablar aniq belgilangan bo‘ladi. Korreksion ishni boshlashdan avval psixolog material berilishida mijozning kuchi va idrokini hisobga olgan bo‘lishi kerak.

2) Erkin dastur - bunda psixolog dastumi o'zi tuzadi. Maqsad va vazifalarining bosqichlarini, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini o'zi belgilaydi. Markazlashtirilgan ta'sir kompleks psixokorreksion bloklardan iborat. Har bir blok aniq metod va usullardan tashkil topgan.

Bular:

1) Diagnostik blok. Maqsadi: shaxs rivojlanishining differensial diagnostikasi, xavfli omillarni aniqlash, psixokorreksion dasturlarning umumiy shakli.

2) Belgilovchi blok. Maqsad: o'ziga bo'lgan ishonchni, muvoqatqakirishga ishtiyoqni uyg'otish, qo'rquvni kamaytirish va o'z hayotiga o'zgarishlar kiritishga xohish uyg'otish.

3) Korreksion blok. Maqsad: mijoz taraqqiyotini optimallashtirish va uyg'unlashtirish, salbiy taraqqiyot fazasidan ijobiysiga o'tish, o'zi va dunyo bilan hamohang faoliyat o'rnatishga o'rganish.

4) Korreksion ta'sirning mahsuldorligini baholovchi blok. Maqsad: reaksiyalarning dinamikasi va psixologik mazmuniga baho bera olish, o'z-o'ziga bergan bahoni barqarorlashtirish.

Nazorat savollari

1. Tadqiqotchi psixolog deganda nimani tushunasiz?
2. Amaliy psixologiya haqida umumiy tasavvur.
3. Psixologik yordam, psixologik himoya va psixologik yo'naltirish,
4. Amaliy psixologiyaning asosiy bo'limlari va tuzilishi,
5. Psixoprofilaktik ishlarning muhim vazifalari, psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishi sifatida
6. Amaliyotchi psixolog vazifalariga nimalar kiradi?
7. Zaruriy talablar deganda nimani tushunasiz?

3-Mavzu: Guruhiy psixologik maslahat. (2 soat)

Reja:

3.1. Guruhiy psixologik maslahat.

3.2. Zamonaviy psixologiya fanlari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar

3.1. Guruhiy psixologik maslahat.

Guruhiy psixologik maslahat - bu guruh a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali amalga oshiriladigan maslahat turi. U guruhning umumiy maqsadlari va har bir ishtirokchining shaxsiy muammolarini hal qilishga qaratilgan. Guruhiy maslahat, shuningdek, psixologik maslahatning texnikasi, bosqichlari va texnologiyasini o'z ichiga oladi. Konsultant va assistentning funktsiyalari ham muhim rol o'ynaydi.

Guruhiy psixologik maslahatning o'ziga xos jihatlari

Guruh bu ijtimoiy yaxlitlikdan ma'lum belgilariga ko'ra (faoliyat xarakteri, ijtimoiy mavqei, rivojlanish darajasi va b.q.) ajratib olingan, chegaralangan hajmga ega kishilar jamoasidir.

Ahamiyatligiga ko'ra(referent, a'zolik guruhlar); Ajratilgan belgilar har bir konkret guruhni faoliyatdagi maqsad va vazifalarining o'ziga xosligini belgilab beradi. Psixokorreksion guruh o'z-o'zini tahlil qilish, shaxsiy ko'nikmalarni hosil qilish, shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish maqsadida sun'iy birlashgan kichik guruhlariga aytiladi. Bu o'zaro tasir shu yerda va hozir tamoyili asosida guruh a'zolari o'zlari bilan yuz berayotgan jarayonlarni o'rganadilar.

Guruhiy psixokorreksiya ochiq va yopiq guruhlarda o'tkaziladi. Katta guruhlar – 25-30 kishi va kichik guruhlar – 5-8-12 kishidan iborat bo'ladi. Yopiq guruhlarda guruh azolari soni doimiy bo'lsa, ochiq guruhlarda o'zgarib turishi mumkin. Guruhga og'ir jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan, ruhiy sog'lig'i buzilgan, guruhda ishlashni istamagan, yaqin qarindoshlarni, xizmat doirasida bir-biriga tobe bo'lganlarni, bir-biriga o'ta adovatli kishilarni qabul qilish mumkin emas. Guruh qisqa muddatli(1-6 oygacha) yoki uzoq muddatli (bir necha yilgacha) bo'lishi mumkin. Mashg'ulotlarning qisqa yoki uzunligi korreksion ta'sirning maqsad

va shakliga ko`ra har xil bo`ladi. Bir haftada uchrashuv soni 2-4 ta, vaqt davomiyligi 20-90 minutgacha bo`lgan holda belgilanadi. Marafon psixokorreksion mashg`ulotlar o`z maqsadlaridan kelib chiqqan holda 9-16-18 soat davom etishi mumkin. Psixokorreksion guruh rahbari oliy psixologik ma'lumotga, ushbu yo`nalishda mutaxassislikka, shuningdek, individual-guruhliy ishlarda mijoz sifatida tajribaga ega bo`lishi zarur. Har bir guruh yuqori kasbiy malakalarga ega bo`lishi lozim.

Guruhiy psixologik maslahatning bir qancha muhim afzalliklari mavjud:

Asosiy Afzalliklar

1. Ijtimoiy Qo'llab-quvvatlash

- Ishtirokchilar o'zlarini yolg'iz emas, balki qo'llab-quvvatlanadigan his qiladi
- O'xshash muammolarga duch kelgan insonlar bilan aloqa o'rnatish imkoniyati

2. Har Tomonlama O'rganish

- Boshqalarning tajribalaridan va strategiyalaridan o'rganish
- Turli xil ko'rak va yondashuvlarni ko'rish
- Muammolarni ko'proq nuqtai nazardan baholash

3. Psixologik Imkoniyatlar

- O'zini ochib berish uchun xavfsiz muhit
- Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish
- O'zaro tushunish va empatiya hissini oshirish

4. Iqtisodiy Samaradorlik

- Individual maslahatga nisbatan arzon
- Ko'proq odamlarga yordam berish imkoniyati

5. Psixologik Yo'nalishlarga Tavsiya

- Muammolarni hal qilishning yangi usullarini ochib berish
- Shaxsiy o'sish va rivojlanish uchun motivatsiya berish

Asosiy Turlari

- Psixoterapevtik guruh maslahat
- O'quv-tarbiyaviy guruh maslahat

- Konsultativ guruh maslahat
- Korrektor guruh maslahat

Samarali Bo'lish Sharti

- Ishtirokchilarning motivatsiyasi
- Ishonchli va qulay muhit yaratish
- Professional konsultant rahbariyati
- Guruh a'zolarining o'zaro hurmat va e'tibori

Qaysi Hollarida Foydali

- Stressli vaziyatlar
- Konflikt holatlari
- Shaxsiy rivojlanish
- Kommunikativ muammolar
- Psixologik travmalar
- Karyera va professional yo'nalish

Guruhiy maslahat faqat professional konsultant rahbarligida samarali bo'lishi mumkin. Konsultant guruh dinamikasini boshqaradi, ishtirokchilarning ochiq muloqotini ta'minlaydi va pozitiv natijalarga erishishga yordam beradi.

3.2. Zamonaviy psixologiya fanlari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar

O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir. “O'qituvchi – deydi Abu Nasr Al- Forobiy, - aqlfarosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur.” U o'z fikrini davom ettirib: “O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aqlfarosatga, ravon nutqqa ega bo'lishi, o'qituvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi,” – deb ta'kidlaydi. Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, “O'qituvchi matonatli, sof

vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Mahoratli ustoz o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, aql qatlamlariga kira olmog'i lozim." Nosiriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "... O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... o'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi:

O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. Ustoz o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbai hisoblanadi. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'ladilar. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablaridan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari quyidagilardir:

- O'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatning mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;

- Ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajad his etishi;

- Oliyjanoblighi, aql-farosatli, ma'naviy pok;

- O'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

-Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

- Keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- Yosh pedagogik psixiologiya, ijtimoiy psixiologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda makyab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- O‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, o‘z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lishi;

-Bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;

- Pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta‘limnig ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;

- O‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi. Har bir o‘qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo‘lishi uchun intilishi kerak.

-Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta‘lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi

- kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan,

– dunyo va mamlakatda ta‘lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta‘limi tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta‘minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

– kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta‘lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

– o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog‘ligi, texnik hamda axborot havfsizligini ta‘minlashga tayyor bo‘lish;

– dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediahavfsizlik me‘yorlariga amal qilish;

-O‘qituvchilar umumta‘lim fanlarini o‘qitish darsining mazmuniga mediamadaniyat va mediahavfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta’siri va oqibatlaridan o‘zini himoyalash yo‘llarini ham o‘rgatish lozim. Bunda talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda

rivojlantirish maqsadga muvofiqdir: – talabalarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo‘llash doirasi, shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalaniish haqidagi tushunchalarni shakllantirish; – ta’lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o‘quv dasturlari va boshqa o‘quv-metodik mahsulotlarning afzalliklarini anglash va qo‘llashni o‘rgatish; – masofadan ma’lumot almashish lokal va global tarmoqda ma’lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-hatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish. Yoshlarimizda yangi zamonga mos hayotiy mo‘ljallarini belgilashda chalg‘imaslik, axborot makonida o‘zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mehnatsevarlik bilan topish, Vatan taraqqiyoti va yurt faravonligiga o‘z hissasini qo‘shish kabi fazilatlarni tarbiyalash biz pedagoglarning burchidir. O‘qituvchilar umumta’lim fanlarini o‘qitish darsining mazmuniga O‘qituvchiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar, turli xilddagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning, shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorgarligi muayyan o‘qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorgarligidan dalolat beradi. Muhim davlat vazifasini – Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o‘qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati, asosan, amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o‘sib rivojlana boradi. Shu bilan birga o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib, o‘zishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta’minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Jamiyat uchun o‘qituvchining o‘rni va roli beqiyos. Ularning saviyasi jamiyatni yo tubanga, yoki yuksakka olib boradi. Tushunarli bo‘lishi kerakki, o‘qituvchi – ulkan mas’uliyatli, hur fikrli va o‘sib boruvchi bilim egasi. Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanady talab bo‘lsa, unga ham shunchalik qat’iy talab bo‘ladi. Ya’ni bilimini bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dollzarbligi kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik – o‘qituvchining majburiy kasb talabi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida haqli ravishda ta’kidlaganidek, “agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o‘ylaymanki, ayni

haqiqatni aytgan bo‘lamiz”. Darhaqiqat, o‘qituvchi, jamiki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg‘ak qalblarga ezgulik yog‘dusini baxsh etadigan mo‘tabar zotdir.

4-Mavzu. Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari. (2 soat)

Reja:

- 4.1. Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari.
- 4.2. Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish.

4.1. Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari.

Tayanch tushunchalar: Psixoanaliz, bixeviorizm, gumanistik konsepsiya, ekzistensial yo‘nalish, kognitiv xulq-atvor yo‘nalishi, psixodinamik yo‘nalish, analitik individual Psixokorreksiya , mijoz-markazlashgan yondashuv.

Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari:

1. Psixoanaliz.
2. Bixeviorizm.
3. Gumanistik konsepsiya.
4. Psixodinamik yo‘nalish.
5. Adlarning analitik individual psixokorreksiyasi.
6. Shaxsga yo‘naltirilgan terapiya.
7. Ekzistensial terapiya.
8. Kognitiv xulq-atvor yo‘nalishi.

Psixoanaliz- psixoanaliz ta’limoti ongdan siqib chiqarilgan istak-mayllar yana ong sohasiga o‘tkazilib, katarsis yo‘li bilan ruhiy jarohat yetkazuvchi kechinmalarni anglatish orqali yordam berishga asoslanadi. Bunda erkin assotsiatsiyalar, tushlar talqini, qarshiliklar, transferlar, yanglish harakatlar tahlili usullaridan foydalaniladi.

Bixeviorizm-bixeviorizmning asoschisi DJ.Uotson (1878-1938) psixologiya fanining bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya’ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o‘zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bixeviorizm uchun “xulq” asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab

o'tilgandir. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar.

Gumanistik-yo'nalish-mazkur yo'nalish ekzistensializmning falsafiy g'oyalariga asoslangan bo'lib, vaqt, hayot, o'lim, ozodlik, masuliyat, tanlov huquqi, muloqot, sevgi, hayot mazmunini anglash muammolarini o'rganishga qaratilgan (M.Xaydegger, P.Sartr, A.Kamyu). Inson mehribon, ozod bo'lishi belgilangan deb qabul qilinib, individuallik integrativ yahlitlik hisoblanadi.

Psixodinamik- yo'nalish-psixodinamik yo'nalishga psixoanalitik nazariyaga yo'naltirilgan psixoterapiya turlari kiradi: klassik psixoanaliz (Freyd), Adlarning individual psixologiyasi, Yungning analitik psixologiyasi, Rankning irodaviy terapiyasi, Shtekelning faol analitik terapiyasi, Fromm-Rayxmannning interpersonal psixoterapiyasi, Xornining xarakterologik tahlili, gumanistik psixotahlil (Fromm), Klyaynning ego-tahlili, Sallivanning interpersonal psixoterapiyasi va boshqalar. Mazkur yo'nalish asosi Z.Freydning ishlaridir. Freyd birinchi bo'lib psixikani instinkt, aql va ongning urish maydoni sifatida tasvirlagan. "Psixodinamik" atamasi shaxsni tashkil qiluvchi tuzilmalar orasidagi tugallanmas tortishuvlarni aks ettiradi.

A.Adlarning analitik individual Psixokorreksiya-sining bosh g'oyasi quyidagicha: inson mukammallikka intiladi, chunki unda o'zidan qoniqmaslik hissi va uni tugatish istagi bo'ladi. Bola atrofidagi olam undan katta, kuchli ekanligini ko'rgani bois unda o'zidan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Ota-onaning nodemokratik munosabati bu hisni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin. O'zidan qoniqmaslik hissi - to'liqsizlik kompleksini tugatish uchun inson o'z-o'ziga o'zining kuchini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu jarayon konstruktiv (bunda boshqalarga yaxshilik qilish hisobiga insonning o'ziga bo'lgan hurmati oshadi) yoki destruktiv (bunda boshqalami kamsitish evaziga insonning o'ziga bo'lgan hurmati oshadi) yo'l bilan amalga oshishi mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan terapiya 1951-yilda K.Rodgers o'zining shaxs va xulq-atvor nazariyasini "Mijozga yo'naltirilgan terapiya" kitobida keltirib o'tadi. Ushbu nazariyaga ko'ra xavotirlanish bu organizmning idrok oldi vaziyatga noqulaylik

va qo'zg'alish ko'rinishidagi reaksiyasidir. Xavotirlanish holatida idrok va tushunishda "men"-konsepsiyasi yoki malaka o'rtasida nomuvofiqlik yoki nokongruentlikning vujudga kelishi kuzatiladi.

Ekzistensial terapiya- ushbu terapevtik yo'nalish asoschilari R.Mey va I.Yalom hisoblanadi. Bu nazariya dinamik xarakterda bo'lib, unda terapiya mijozning universal ekzistensial notinchligiga qaramaqarshi ravishda olib boriladi. Bu terapevtik yo'nalishning asosiy mohiyati "inson subyektivligi uning hayotiy tajribasi natijasidir" degan fikrga tayanadi. Bu yo'nalishning asosiy vazifasi - insonga hayotning fundamental savollariga javob topishga ko'maklashishdan iborat.

Kognitiv xulq-atvor yo'nalishi-mazkur yo'nalish tamoyillarini D.Uotson, B.Skinner o'z ishlarida asoslab berishgan. Bu yo'nalish namoyandalari mijoz muammolarini atrof-muhit ta'siriga javoban yuzaga keladigan noadaptiv xulq-atvor shaklida ko'rib chiqadilar. Demak, noadaptiv xulq-atvomi maqsadga yo'nalgan ta' sir asosida ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin, degan fikmi ilgari surishadi.

4.2. Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish.

Bolalar psixik taraqqiyotini tuzatish, psixologik xizmatni tashkil etish muammosi bo'yicha chet el psixologiyasiga murojaat qilishimiz quyidagilar bilan bog'liq:

1) Chet el psixologiyasida tuzatish ishlarining texnikasi, uni o'tkazish tartiblari, metodlari juda yaxshi ishlangan bo'lib, amaliy psixologik vazifalariga moslashtirilgandir;

2) so'ngi vaqtlarda tuzatish metodlari va texnikalarini, ularning nazariy manbalari va asoslarini tahlil qilmasdan to'g'- ridan-to'g'ri notanqidiy o'zlashtirish kuchaymoqda.

Chet el psixologiyasidagi bola psixik taraqqiyotini tuzatish muammosidagi barcha nuqtayi nazarlarni ikki guruhga ajratamiz:

a) psixodinamik nuqtayi nazar bo'yicha terapevtik kuch ongni, uning tuzilishini rivojlantirishga qaratiladi;

b) xulqiy nuqtayi nazar bo"vicha individning tashqi muhitda faolligini aniqlaydigan stimul-reaksiya bog'lanishining ko'rinishini o'zgartirishdan iborat.

Sobiq sovet psixologiyasida tuzatish uch asosiy tamoyilda amalga oshiriladi.

1. Taraqqiyotning normativligi tamoyili.

2. "Yuqoridan pastga" tuzatish tamoyili.

3. Psixik taraqqiyotning sistemaligi tamoyilidir.

Psixokorreksion tadbirlar rivojlanishdagi og'ishlarni to'g'rilashga yo'naltirilgan. Shu tufayli bir qator dolzarb savollar paydo bo'ladi:

- Rivojlanishdagi og'ishlar deganda nimani tushunish kerak?
- Psixologik korreksiyaning amalga oshirishiga doir qanday ko'rsatmalar mavjud?
- Korreksion masalalarning maqsadga muvofiqligini belgilashmas'uliyatini kim o'zbo'yniga oladi va qaror qabul qiladi?

- Korreksiya samaradorligini kim va nimaga asoslanib baholaydi? Korreksion ish amaliyotida rivojlanishdagi qiyinchiliklar sabablarini tushuntiruvchi turli modellar mavjud.

Biologik model - og'ishlarning kelib chiqishini organik yetilish tempining sekinlashuvi bilan izohlaydi.

Tibbiy model - rivojlanishdagi og'ish, qiyinchiliklar va muammolarni anomal rivojlanish sohasiga olib chiqadi.

Interaksionistik model - taraqqiyot muammolarini vujudga kelishida shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarning buzilishi, xususan, bolaning sensor va ijtimoiy deprivatsiyasi oqibatlarini alohida qayd etib o'tadi.

Pedagogik model - og'ishlarning sababini pedagogik va ijtimoiy qarovsizlikda ko'radi. Faoliyatga doir model- y etakchi faoliyatko'rinishi va mazkur yosh bosqichi uchun odatiy faoliyat turlarini shakllanmaganligini diqqat markaziga qo'yadi.

Korreksion ish maqsadlarining qo'yilishi psixik rivojlanishning nazariy modeli bilan uzviy bog'liq. Korreksion maqsadlarni qo'yish sohasida uchta asosiy yo'nalish farqlanadi:

Chet el psixologiyasida bola rivojlanishidagi qiyinchiliklar shaxsning ichki strukturasi buzilganda (Z.Freyd, M.Klayn va h.k.) yoki muhit buzilganligida, yoki ikkala sabab birlashganda yuzaga keladi, deb hisoblashadi.

Pirovardida, ta'sir ko'rsatishning maqsadi shaxs uyg'unligi va psixodinamik kuchlar balansini tiklashdan iborat, deb tushuniladi. Korreksion ishning texnikasi va usullarining tanlanishi uning maqsadlari bilan belgilanadi.

Maqsadlarni konkretlashtirishda quyidagi qoidalami hisobga olish lozim:

1. Korreksiya maqsadlari negativ emas, pozitiv shaklda tuzilishi kerak. Maqsadlar inkor so'zlari bilan tuzilmasligi shart, ulaming taqiqlovchi xarakterga ega bo'lishi mijozning rivojlanish imkoniyatlarini, tashabbuslarini chegaralab qo'yishi mumkin. Korreksiya maqsadlarini aniqlashning negativ shakli bartaraf etilishi lozim bo'lgan xulq-atvor xususiyatlar tavsifidan iborat.

Korreksion muddaolaming pozitiv shakli mijozda shakllanishi kerak bo'lgan xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

2. Korreksiya maqsadlari real tuzilishi kerak. Agar maqsadlar real holatdan uzoq bo'lsa, unda psixokorreksion dastur foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin.

3. Umumiy maqsadlar qo'yilganda, shaxs taraqqiyotining yaqin va olis istiqbolini hisobga olinishi kerak. Shaxsning, nafaqat korreksiya tugagan vaqtidagi ko'rsatkichlarini, balki keyinroq ro'y beradigan rivojlanish bosqichlaridagi o'zgarishlarni ham qamrab olishi kerak.

4. Korreksion ishning samarasi ancha uzoq vaqt davomida namoyon bo'lishini yodda tutish lozim. Korreksion ish jarayonida, uning yakunlanishida va nihoyat, tahminan yarim yil o'tgandan keyin, korreksion ishning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligi haqida gapirish mumkin.

Nazorat savollari

1. Psixokorreksion faoliyat tamoyillariga nimalar kiradi?
2. Korreksiyaning "yuqoridanpastga" tamoyilining mazmuni qanday?
3. Korreksiyaning "pastdan yuqoriga" tamoyili haqida tushuncha bering.
4. Psixik faoliyat taraqqiyotining tizimlilik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining meyoriy hujjatlari. (2 soat)

Pedagog-psixolog faoliyatiga aloqador mavjud qaror, farmoyishlar-ma'lumki, mamlakatimizda istiqbol yillarida, barcha jabhalarda bo'lgani kabi, ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tarbiyalanuvchi, o'quvchi-yoshlar qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, aniq maqsadni ko'zlagan holda ular bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish, jamoatchilik e'tiborini o'quv-tarbiya jarayoniga, tarbiyalanuvchi, o'quvchi-yoshlar shaxsini rivojlantirishga jalb etish yo'nalishidagi ishlar kuchaytirilmoqda. Ta'kidlash joizki, yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat ham oxirgi o'rinda emas. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida bir nechta yangiliklar yaratildi.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining meyoriy hujjatlari bo'yicha batafsil ma'lumot:

1. Normativ-huquqiy asoslar:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
- O'zbekiston Respublikasining "Psixologik yordam to'g'risida"gi Qonuni
- Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 472-son qarori

2. Psixologik xizmat tizimining asosiy yo'nalishlari:

- Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish

Psixolog kadrlarni tayyorlash va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish

3. Psixologik xizmatning asosiy vazifalari:

- O'quvchilarning psixologik holati diagnostikasi
- Profilaktika va korreksion ishlar
- Pedagog xodimlar va ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish

4. Psixolog kadrlarga qo'yiladigan talablar:

- Malaka talablari O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan belgilanadi

- Psixologik xizmat rahbarligi uchun maxsus talablar
5. Psixologik xizmatning tashkiliy asoslari:
- Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat bir nafar psixolog tomonidan amalga oshiriladi
 - Psixologik xizmat faoliyati namunaviy ish reja asosida tashkil etiladi
6. Asosiy muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari:
- Psixolog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish
 - Psixologik xizmatlarni muvofiqlashtirish tizimini yaratish
 - Psixolog kadrlarning moliyaviy rag'batlantirilishi
7. Davlat siyosati yo'nalishlari:
- "Psixologik salomatlik yo'lida O'zbekiston" milliy targ'ibot kampaniyasi
 - Yoshlar psixologiyasini rivojlantirish
9. Hujjatlar tizimi:
- Psixologik xizmat haqidagi Nizom
 - Ta'lim muassasalarining ichki hujjatlari
 - Psixologning lavozim yo'riqnomasi

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar kompleks xususiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi ta'lim tizimida psixologik yordam sifatini oshirish va yangi yondashuvlarni joriy etishdan iborat.

2-amaliy mashg'ulot: Korreksion tadbirlar olib boradigan psixologga qo'yiladigan talablar. (2 soat)

Professional va shaxs sifatida ta'lim tizimida ishlovchi amaliy psixologlar juda ko'p. Kunlar kelib ular yana ham ko'payadilar. Ular o'z faoliyatlarini ta'lim tizimining barcha muassasalarida: bolalar uylarida va bolalar bog'chasida, umumta'lim maktab va intematlarda, litseylar va maxsus maktablarda, gimnaziya va kollejlarda va xususiy maktablarda, rehabilitatsiya, korreksiya rivojlanish, tibbiy psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Amaliy psixolog qayerda ishlamasin doim ta'kidlab kelganimizdek, jamiyatda turli haququqli, turli yoshdagi, har biri alohida individual, noyob shaxs xususiyatlariga ega va o'ziga xos

fe'l-atvorli insonlar bilan ish olib boradilar. Biroq psixolog ham - inson. U qanchalik yorqin kamolga ega bo'lsa, u shunchalik o'z sohasining o'tkir mutaxassisi bo'ladi, chunki amaliy psixolog qaysidir darajada o'z atrofidagi insonlarning eng yaqin rivojlanish zonalariga ta'sir ko'rsata oladi. Bu ta'sir doiralarning kengligi turlicha bo'lishi mumkin. Shu tufayli amaliy psixologning ish faoliyatini tushunish va baholash ancha qiyindir. Uning kamchiligi yana shundaki, ko'pchilik bu faoliyatni uni ayrim mavjud tashqi ko'rsatkichlari bo'yicha baholaydilar.

Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, undakorreksion ishgajalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari o'z aksini topsin: dasturni xalq, etnos, millat, elat tarixi, an'analari, rasm-rusumlari, udumi, odati, stereotipi kabilami hisobga olgan holda tuzish maqsadga muvofiq, hunartexnika bilim yurtlari o'quvchilari bilan murabbiylar o'rtasidagi nomutanosiblikni yo'qotish maqsadida maxsus mashg'ulotlar o'tkazish: ulardagi o'qishdan, ijtimoiy muhitdan, egallagan o'rnidan, mavqeyidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun trening, ishchanlik o'yinlari, psixodramadan foydalaniladi, emotsional zo'riqishning oldini olish va uni kamaytirish niyatida maxsus xonalar jihozlash (xona jahon standartlariga javob berishi, boshqaruv pulti, ekran vositalari, audiotrening, sotsial trening, texnik vositalariga, ilmiy-amaliy metodikalarga ega bo'lishi lozim).

3-amaliy mashg'ulot: Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari. (2 soat)

Psixologik xizmatning Psixokorreksiya yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo'lib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, o'quvchilar, talabalar) psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi qobiliyatlarini amaliyotda hisobga olgan holda faoliyat olib borish, o'qituvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar va talabalar ta'lim-tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdan iborat. Psixologik xizmatning ushbu

yoʻnalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa - bu bolalar, oʻquvchilar, talabalar oʻsishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, taʼlimda oʻzlashtirishning yomonlashuvi hisoblanadi. Psixik taraqqiyotni tuzatish “korreksiya qilish” atamasi dastlab defektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan boʻlsa, amaliy yosh psixologiyasining rivojlanishi bilan “tuzatish” tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qoʻllanila boshladi. D.B. Elkonin tuzatishning yoʻnalganligi korreksiya xarakteriga bogʻliq ravishda tuzatishning ikki usulini ajratishni taklif qiladi:

1. Taraqqiyotdan chetlashish belgilariga qaratilgan simptomatik tuzatish.

2. Taraqqiyotdan chetlashish sabablari va manbalariga qaratilgan tuzatish hisoblanadi. Psixologik maslahat berish amaliyotida normal taraqqiyot korreksiyasi nonormal taraqqiyot korreksiyasidan farqlanadi. Normal taraqqiyotda tuzatishning mazmuniga koʻra quyidagi turlari ajratiladi: aqliy taraqqiyot korreksiyasi, shaxs taraqqiyoti korreksiyasi, salbiy holatlarning oldini olish korreksiyasidir. Psixolog ishida korreksion vazifalarni yechish maqsadida psixologik yordamni tashkil etishga bogʻliq ravishda uning turini koʻrsatish mumkin: madaniy oqartuv ishlari, maslahat-tavsiyalar berish, individual va guruhiiy korreksiya Madaniy oqartuv ishlari - ota-onalar, tarbiyachilar, oʻqituvchilarga moʻljallangan boʻladi. Bunda bola taraqqiyoti asosiy qonuniyatlari, yosh psixologik xususiyatlari, har bir yoshning qiyinchiliklari, muammolari va ularni bartaraf etish boʻyicha umumiy tavsiyalar beriladi. Mehnatni koʻp talab etadigan psixologning tuzatish ishi - ota-onalar, oʻqituvchilar, tarbiyachilar va bolalar guruhi yoki individual tarzda bir bola bilan hamkorlikda olib boriladi. Ishning ana shu turi mehnat, vaqt, koʻp metod va metodikalarni qoʻllashni talab etsa ham ancha natijali hisoblanadi.

4-amaliy mashgʻulot: Psixokorreksion metodlari. Individual va guruhiiy psixokorreksiya. (2 soat)

Psixokorreksiyaning metodlari:

1. Artterapiya.
2. Oʻyin terapiyasi.
3. Psixogimnastika.

4. Biblioterapiya.
5. Raqs terapiyasi.
6. Ertak terapiyasi.
7. Psixodramma.
8. Logoterapiya.

1. Artterapiya -artterapiya dastlab Z.Freyd va K. Yungning egodagi himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishi sifatidagi nazariy g'oyalari asosida vujudga keldi (sublimatsiya, proyeksiya). Dastlab psixoanalizda paydo bo'lgan artterapiya hozirda barcha yo'nalish vakillari tomonidan keng qo'llanilmoqda. Artterapiyaning yutug'i shundaki, u tarapevtik aloqani o'rnatishni chuqurlashtirishga yordam beradi.

2. O'yin terapiyasi-ta'limiy o'yinlar kichik guruhlarda quyidagi xilda o'tkaziladi: O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar-"Ayiqlarga nima kerak?", "Jajji oyoqchalarimiz", "Zumrad uchun ko'ylaklar". Stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar - "Nima qayerda yuradi?", "Men aytgan narsani ko'rsat "Kimning qo'lida nima bor?". Og'zaki usuldagi ta'limiy o'yinlar - "Qo'g'irchoq Lolaxonni cho'ltiramiz", "Qo'g'irchoq Lolaxon mehmonga keldi", "Ajoyib xaltacha", "Shaklini top", "Rangini top" kabi o'yinlar kiradi

3. Psixogimnastika - bu guruh a'zolarining o'zini namoyon qila oladigan va nutqsiz munosabatga kirisha olishini ta'minlovchi metoddir. Bu samarali vosita yordamida shaxsning ijtimoiy hodisalarni idrok qilishi uchun eng qulay sharoit yaratiladi, "tana tili"ga e'tibor beriladi, atrof-hayot munosabatlarini ifodalashga imkoniyat yaratiladi. "Psixogimnastika" termini keng va tor ma'no da qo'llaniladi. Guruh a'zolarining asosiy kommunikatsiya vositasi imo-ishorali harakatlar bilan ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

4. Biblioterapiya-V.M. Myasishevning yozishi bo'yicha - "Biblioterapiya uslubi o'zida kitobshunoslik, psixologiya, psixoterapiya, psixokorreksiyaning murakkab qo'shilmasini mujassam etadi". Biblioterapiya - mijozga maxsus yo'nalish berish, yo'naltiruvchi ta'sir etib, maxsus tanlangan adabiyotni o'qitib, ruhiy holatini normallashtirish yoki optimizatsiyalashga qaratiladi.

5. Raqs terapiyasi- emotsional nomutanosibligi mavjud boigan, muomala qilmaslik, o‘zaro muomala muammosi bo‘lgan odamlar uchun qo‘llaniladi. Bu uslubni qo‘llash psixologdan chuqur tayyorgarlikni talab qiladi, chunki bunday ta’sirda kuchli emotsiyalar uyg‘onishi mumkin, bu esa hal etilishni talab etadi. Raqs harakatlari jismoniy kontakt va shiddatli o‘zaro muomala bilan kuchli hissiyot uyg‘otishi mumkin.

6.Ertak terapiyasi-Pedagog-psixolog ishida keng foydalaniladigan konsultativterapevtik faoliyatlarning yana bir turi ertak terapiyasi hisoblanadi. Ertak terapiyaning asosiy xususiyati metaforik va o‘zgacha bayon etish uslubiga, tilga ega ekanligidir. Ertakda bayon etiladigan hodisaning haqiqati to‘g‘ridan-to‘g‘ri va tinglovchilar uchun tanish bo‘lgan shaklda emas, balki o‘zgacha namoyon bo‘ladi.

7.Psixodrama-Y.L.Moreno tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, guruhiiy psixoterapiyaning turlaridan biridir. Psixodrama sahnalashtirilgan tomosha shaklida o‘tkaziladi. Mijozlar uchun og‘riqli va muammoli bo‘lgan vaziyatlar sahnalashtiriladi. Qatnashchilar bu vaziyatlarda o‘zining yoki boshqa kimsaning rolini ijro etadilar. Ba’zida sahnalashtirilgan muammoli vaziyatni tomoshabin sifatida kuzatadilar. Rolli o‘yindan keyin mijozlar ruhan yengil tortib, o‘zlarini yaxshiroq anglay boshlashadi, muloqot ko‘nikma va malakalarini egallab borishadi.

8. Logoterapiya-Logoterapiya (grek. logos-ma’no, so‘z, therapeia - muolaja) - V.Frankl tomonidan yaratilgan psixoterapiya nazariyasi va amaliyoti. Ushbu yo‘nalishda shaxs xulqi va taraqqiyotining asosi sifatida inson o‘z hayotining ma’nosini topishi va amalga oshirishga intilishini ko‘radi. Franklning fikricha inson hayotining ma’nosini topishi va amalga oshirishga intilishi har bir odamga xos bo‘lgan tug‘ma motivatsion moyillik hisoblanadi. “Ma’noga intilish”, Frankl aytishicha, “xotirjamlikka intilish”ga teskari bo‘lib, insonga tinch, sokin holat emas balki o‘ziga mos qandaydir maqsad uchun kurash talab etiladi. Hayot ma’nosining mavjud emasligi yoki uning amalga oshmasligi insonda ekzistentsial vakuum va frustratsiya holatini yuzaga keltiradi.

V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Ko‘chma mashg‘ulot: Psixologik xizmatni tashkil etish. Ta’lim sohasidagi psixolog faoliyatining me’yoriy hujjatlari

1. Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsga yo’naltirilgan yondashuv psixologik xizmatning ahamiyatini keskin oshirmoqda. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar va ota-onalar bilan olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodagnostik va psixokorreksion ishlar takomillashadi. Mazkur mashg‘ulotda psixologik xizmatning asosiy maqsadi, vazifalari, tashkil etilish tartibi va huquqiy asoslari o‘rganiladi.

2. Psixologik xizmat tushunchasi va uning asosiy maqsadi

Psixologik xizmat – bu ta’lim muassasalarida ishtirokchilarning (o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona va boshqalar) ruhiy salomatligini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Shaxsning individual va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘maklashish;
- Psixik holat va muammolarni erta aniqlash va profilaktika qilish;
- Ta’lim-tarbiyaviy jarayonning psixologik jihatdan muvofiqlashtirilgan holda tashkil etilishiga yordam berish;
- O‘quvchilarda ijtimoiy-psixologik moslashuvni rivojlantirish;
- Pedagogik jamoa bilan hamkorlikda sog‘lom psixologik muhitni yaratish.

3. Psixologik xizmat turlari va shakllari

Psixologik xizmat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- **Psixodagnostika** – shaxs psixik holati, xulq-atvori, qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlash;
- **Psixoprofilaktika** – ruhiy buzilishlar, stress, ijtimoiy moslashuvdagi muammolarning oldini olish;

- **Psixokorreksiya** – shaxsiy muammolarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar;
- **Psixologik maslahat** – ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga individual tavsiyalar berish;
- **Psixologik ta’lim** – o‘qituvchilar va ota-onalar uchun ma’rifiy seminarlar, treninglar tashkil etish.

Shuningdek, guruh va individual shakllarda olib borilishi mumkin. Har bir faoliyat turi psixologning reja va yillik ish dasturida belgilab olinadi.

4. Psixolog faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir, 2020 yil)

Ta’limda shaxsning intellektual, axloqiy va psixologik rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan.

2. “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konventsiya va O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

Bola shaxsini himoya qilish, uning rivojlanishiga zarur psixologik shart-sharoitlarni ta’minlash.

3. Xalq ta’limi vazirligi buyrug‘i – 2018-yil 5-dekabrda 317-son “Psixologik xizmatni tashkil etish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi nizam

Ushbu nizomda ta’lim muassasalarida psixologik xizmat ko‘rsatishning vazifalari, shakllari va jarayoni tartibga solingan.

4. SSV va Maktabgacha ta’lim vazirligining qo‘shma hujjatlari

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodagnostikasi va korreksion dasturlari bo‘yicha normativlar.

5. Pedagogik etikaga oid me’yoriy hujjatlar

Psixologning kasbiy etika kodeksi, konfidensiallik, betaraflik va professional mas’uliyat tamoyillari.

5. Psixologning vazifalari va huquqlari

Psixologning asosiy vazifalari:

- Har bir sinf o'quvchilari bilan yillik psixodiagnostika o'tkazish;
- Muammoli o'quvchilar bilan individual ishlar rejasini ishlab chiqish;
- Pedagogik jamoa va ota-onalar bilan maslahatlashuvlar tashkil etish;
- Psixoprofilaktika va trening mashg'ulotlari o'tkazish;
- Statistik ma'lumotlar va hisobotlar tayyorlash.

Psixologning huquqlari:

- Pedagogik kengashlarda ishtirok etish;
- O'quvchilarning psixik holati bo'yicha xulosa berish va tavsiyalar bildirish;
- O'quv rejasida belgilangan hajmda mashg'ulotlar o'tkazish;
- Kasbiy malakasini oshirish kurslarida ishtirok etish;
- Mahfiylikni saqlagan holda axborot bilan ishlash.

6. Tashkiliy va metodik ishlar

Ta'lim muassasasida psixologik xizmatni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Rejalashtirish

- Yillik ish rejasi va kalendar rejasi tuziladi;
- Diagnostika, profilaktika va trening mavzulari belgilanadi.

2. Hamkorlik aloqalari

- Ma'muriyat, sinf rahbarlari, ijtimoiy pedagog, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik.

3. Hisobot va tahlil

- Har chorakda va yil yakunida faoliyat samaradorligi haqida ma'lumotlar taqdim etiladi.

4. Metodik ta'minot

- Psixologik testlar, anketalar, o'yinlar, slaydlar, o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash.

2-Ko‘chma mashg‘ulot. Guruhiy psixologik maslahat. Psixologik korreksiyaning maqsad va vazifalari

1. Kirish

Zamonaviy psixologik xizmat tizimida guruhiy psixologik maslahat va psixologik korreksiya muhim o‘rin egallaydi. Shaxsning ruhiy holatini tiklash, ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta‘minlash, xulq-atvor muammolarini bartaraf etishda bu usullar samaradorligi bilan ajralib turadi. Mazkur mashg‘ulot doirasida guruhiy maslahatning afzalliklari, tuzilishi, tashkil etish bosqichlari va korreksion ishlarning mazmuni, maqsadi va vazifalari keng yoritiladi.

2. Guruhiy psixologik maslahat tushunchasi

Guruhiy psixologik maslahat – bu bir vaqtning o‘zida bir necha ishtirokchilar bilan o‘tkaziladigan maslahat jarayonidir. Bu usul o‘xshash muammolarga ega bo‘lgan odamlarni birlashtirib, ularga o‘zaro tajriba almashish, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Guruhiy maslahat quyidagi vaziyatlarda qo‘llaniladi:

- O‘quvchilarda o‘ziga ishonchning pasayishi;
- Sifatli muloqotga kirishishda qiynalish;
- Stress, xavotir, fobiya, tajovuzkorlik holatlari;
- Yangi jamoaga moslashishda qiyinchiliklar;
- Agressiv yoki ijtimoiy yakkalanib qolgan bolalar bilan ishlashda.

3. Guruhiy maslahatning afzalliklari

- Guruh a‘zolari o‘zini yolg‘iz emasligini his qiladi;
- O‘zaro tinglash, tushunish va empatiya rivojlanadi;
- Ko‘plab odamlar bilan bir vaqtda ishlash imkoni yaratiladi;
- Muammoga turli nuqtai nazardan yondashuv kuchayadi;
- Ijtimoiy ko‘nikmalar, xatti-harakatni nazorat qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Guruhiy maslahat ko‘pincha **guruh terapiyasi, trening, psixodrama** yoki **ko‘nikma mashqlari** ko‘rinishida amalga oshiriladi.

4. Guruhiy maslahatni tashkil etish bosqichlari

1. Tayyorlov bosqichi

- Guruh mavzusi va maqsadi aniqlanadi;
- Ishtirokchilar saralanadi (yosh, muammo turi, darajasi asosida);
- Maslahat rejasi va metodikasi tuziladi.

2. O‘tkazish bosqichi

- Guruhga kirish mashqlari (tanishtiruv, ishonch muhitini yaratish);
- Asosiy muammolar yuzasidan muhokama va psixologik mashg‘ulotlar;
- Rol o‘ynash, vaziyatli tahlil, emotsional reaksiya mashqlari.

3. Tahlil va yakuniy bosqich

- Mashg‘ulot natijalarini tahlil qilish;
- Ishtirokchilar fikr-mulohazalarini olish;
- Individual maslahatga muhtoj ishtirokchilar bilan alohida ish olib borish.

5. Psixologik korreksiya tushunchasi

Psixologik korreksiya – bu shaxsning psixik rivojlanishida, emotsional holatida yoki xulq-atvorida yuzaga kelgan buzilishlarni bartaraf etish yoki yengillashtirishga qaratilgan maxsus psixologik ta’sirlar tizimidir.

Korreksiya so‘zi lotincha “correctio” – “to‘g‘rilash, tiklash” degan ma’noni anglatadi. Ushbu faoliyat psixolog tomonidan psixodagnostika natijalariga asoslanib rejalashtiriladi.

6. Psixologik korreksiyaning asosiy maqsadlari

- Shaxsdagi salbiy hissiy holatlarni yengillashtirish (stress, xavotir, qo‘rquv va boshqalar);
- Moslashuv muammolarini bartaraf etish;
- Agitativ yoki depressiv holatlarni kamaytirish;
- Agresiya, tajovuzkorlik, ichki tortinishni pasaytirish;
- Ijobiy “Men” konsepsiyasini shakllantirish;
- O‘z-o‘zini anglash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

7. Psixologik korreksiya usullari

- **Art-terapiya** – rasm chizish, haykaltaroshlik, kollej, ranglar bilan ishlash orqali ichki holatni ifoda etish;

- **Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish** – real hayotga yaqin ssenariylar orqali qaror qabul qilishni o‘rganish;
- **Psixogimnastika** – tana harakatlari orqali emotsional holatni boshqarish;
- **O‘z-o‘ziga aytish usullari** – shaxsiy motivatsiyani kuchaytirish va ichki nutqni shakllantirish;
- **Relaksatsion texnikalar** – nafas olish, muskul relaksatsiyasi, meditatsiya va vizualizatsiya.

8. Psixologik korreksiya vazifalari

1. Shaxsning salbiy emotsiyalarini kamaytirish, pozitiv emotsiyalarni shakllantirish;
2. Ichki ziddiyat va konfliktlarni yengillashtirish;
3. Ijtimoiy-psixologik moslashuvga yordam berish;
4. Sog‘lom o‘zini baholash, o‘ziga ishonch hissini mustahkamlash;
5. Muloqot madaniyati va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;
6. Barkamol shaxs sifatlarini shakllantirishga zamin yaratish.

9. Korreksion ishni tashkil etish

Psixologik korreksiya muammoli shaxslar bilan **individual yoki guruh** shaklda olib boriladi. Bunda:

- Aniq muammo aniqlanadi (psixodagnostika orqali);
- Korreksion dastur tuziladi (mashqlar, seanslar, yondashuvlar);
- Monitoring amalga oshiriladi (oraliq baholash, fikrlar);
- Yakuniy tahlil o‘tkaziladi (o‘zgarish darajasi aniqlanadi).

10. Xulosa

Guruhiy maslahat va psixologik korreksiya usullari ta’lim tizimida shaxsiy muammolarni yengillashtirish, ijtimoiy moslashuvni ta’minlash, emotsional barqarorlikni kuchaytirish uchun muhim vositalardir. Psixolog tomonidan bu usullarning to‘g‘ri tashkil etilishi – muammoli holatlarga erta aralashish, sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish va shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashishda muhim rol o‘ynaydi.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli

Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

2. B.I.Ismailov, I.I.Nasriyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari//O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.:O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Sudyalar oliy maktabi, 2020.-272 b.

3. Юсуфжанов О., Усманова С. Зарубежный опыт противодействия коррупции. // -Т.: Адвокат, 2016. №5 - 59-62б.

4. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.

5. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

6. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

7. Виртуальная реальность как новая исследовательская и образовательная среда. Церфуз Д.н. и др. // ЖУРНАЛ [Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России»](#), 2015. – с.185-197.

8. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.

9. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

10. Кирьякова А.В, Ольховая Т.А., Михайлова Н.В., Запорожко В.В. Интернет-технологии на базе LMS Moodle в компетентностно-ориентированном образовании: учебно-методическое пособие / А.В. Кирьякова, Т.А. Ольховая, Н.В. Михайлова, В.В. Запорожко; Оренбургский гос. ун-т. – Оренбург: ОГУ, 2011. – 116 с. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf

11. Кононюк А.Е. Облачные вычисления. – Киев, 2018. – 621 с.

12. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

13. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.

14. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.

15. M.Xurramov. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish [Matn]: metodik qo‘llanma / M.Xurramov. K.Xalmuratova. – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024. – 28 b.

16. Тенденци и развития высшего образования в мире и в России. Аналитический доклад-дайджест. - М., 2021.- 198 с.

17. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285

18. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.

19. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.

20. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.

21. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

22. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

23. Печеркина, А. А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст] : монография / А. А. Печеркина, Э. Э. Сыманюк, Е. Л. Умникова : Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург : [б.и.], 2011. – 233 с.

24. О.С. Фролова. Формирование инновационной компетенции педагога в процессе внутришкольного повышения квалификации. Дисс.к.п.н. Воронеж 2018.

25. Компетенции педагога XXI века [Электронный ресурс]: сб. материалов респ. конференции (Минск, 25 нояб. 2021 г.) / М-во образования Респ. Беларусь, ГУО «Акад. последиплом. образования», ОО «Белорус. пед. о-во». – Минск: АПО, 2021.

26. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

27. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.

28. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах./ -М.:Айрис-пресс, 2016.

29. Натанзон Э. III. Приемы педагогического воздействия. - М, 2012. - 202 с.
30. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2014.
31. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
32. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
33. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
34. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
35. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013.175.
36. Mers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
37. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
38. The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press 2009.
39. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Й. и др. Современные образовательные технологии.: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство СРНС, 2015. – 318 с.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B - 44BB-98C4 - CB5092BE4460.pdf>
40. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat. –Т.:Navro‘z. 2018.
41. Белогуров А.Й. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ИСБН 978-5-317-05412-0.
42. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi-Toshkent, Noshir., T 2010.
43. G‘oziyev E.R. Psixologiya metodologiyasi-Toshkent.O‘qituvchi.2010
44. Gulobod Quدراتulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
45. Z.T.Nishonova, Z.Qurbonova, D.S.Qarshiyeva, N.B.Atabayeva, Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya – Т.: Fan va texnologiyalar, 2014.
L.Y.Olimov, A.M.Nazarov, Sh.SH.Rustamov, Sh.SH.Ostonov. “Umumiy psixodiagnostika” o‘quv qo‘llanma. 2020.

46. L.Y.Olimov, Sh.R.Barotov, O.R.Avezov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. “Navro‘z” nashriyoti. T.: 2019.
47. Rasulov A.I. Psixodiagnostika.-Toshkent, “Mumtoz so‘z”-2010.
48. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 b.

II. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.